

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 93/99+950

BOYMIRZAYEV ISMOIL XASANOVICH

**O‘zbekistonning Hindiston davlati bilan ijtimoiy-madaniy aloqalari
(1991-2010) yillar**

5A 120301 – O‘zbekiston tarixi mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

p.f.d. professor T.A. Egamberdiyeva

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob.O'zbekiston va Hindiston davlatlari o'rtasida qadimiy hamkorlik aloqalarining asoslari	14
1. O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy aloqalarning shakllanishi tarixiy bosqichlari.....	14
2. Hindiston mustaqilligi uchun kurash yillarida va XX asr 90 yillariga qadar ikki mamlakat o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarining cheklanganlik sabablari.....	21
II bob.O'zbekiston va Hindiston davlatlari munosabatlarida tashqi siyosiy faoliyati asoslarining ishlab chiqilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga yo'l qo'yilishi	31
1. Ikki davlat o'rtasida hartomonlama o'zaro foydali munosabatlarning o'rnatilishi va mustahkamlanib borishi bosqichlari.....	31
2.O'zbekiston-Hindistondavlatlarining hozirgi kunda globallashuv sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy sohadagimunosabatlarning istiqbollari.....	43
III bob.O'zbekistonning Hindiston Respublikasi bilan madaniyat, ilm-fan, turizm va boshqa sohalardagi hamkorligi	53
1.O'zbekiston-Hindiston davlatlari o'rtasida madaniy hamkorlikning yangi istiqbollari.....	53
2. O'zbekiston va Hindistondavlatlarining ilm-fan, san'at va boshqa sohadagi madaniy aloqalarining halq diplomatiyasi shakllaridan biri sifatida mustahkamlanishi.....	62
Xulosa	71
Foralanilgan adabiyotlar ro'yxati	76
Ilovalar	82

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqilligining e'lon qilganligi o'zbek halqi va davlatchiligining ko'p asrlik tarixida muhim voqea bo'ldi. Aynan mustaqillik tufayli O'zbekiston tarixida yangi sahifa ochildi. Erishilgan milliy mustaqillik mantiqiy ravishda O'zbekistonda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarda tub islohatlar amalga oshirilishini kun tartibiga qo'ydi.

“Biz- deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov, o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, halqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgan- bunday imkoniyatlarning barchasi aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz”¹

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab suveren davlat sifatida mamlakatning ichki hayotiga oid masalalar bilan bir qatorda, tashqi siyosat yo'nalishiga doir vazifalarni bajarishga kirishdi.

O'zbekiston rahbariyati mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyatiga e'tibor qaratar ekan, birinchi navbatda uning strategiyasi, tamoyillari va ustuvor yo'nalishlarining belgilab oldi. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi qisqa muddat ichida zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining shakllanish jarayoniga to'la huquqli a'zo sifatida qo'shildi va jahon hamjamiyatining integratsiyalashuviga yuz tutdi.

Mamlakat tashqi siyosiy faoliyatistategiyasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik o'rnatishi va rivojlantirilishining faol tarafdori bo'lib qolmoqda. Bu nafaqat davlatlar o'rtasida teng huquqlilik asosidagi munosabatlarning

¹Каримов . И. А. Юсак манавият энгилмас куч. – Тошкент. “Манавият”. 2008.- Б-3

shakllanishiga, balki halqlar o'rtasida do'stlik va o'zaro ishonchning mustahkamlanishiga ham hissasini qo'shmoqda. Shu sabablarga ko'ranisbatan yosh bo'lgan mustaqil O'zbekiston davlatining tashqi siyosiy faoliyatining ilmiy nuqtai nazarda o'rganishi bugungi dolzarb masalalardan biridir. Aynan bu g'oya mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan, respublikadagi yetuk tarixchi olimlar bilan 1998-yil iyun oyida bo'lib o'tgan uchrashuv chog'ida ilgari surilgan edi. Shuningdek, ushbu g'oya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining maxsus qarorida o'z aksini topdi.

Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasining zamonaviy xalqaro munosabatlardagi teng huquqli aloqalarni o'rganishi bugungi kunda tarix fani oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Shu asosda ta'kidlash joizki, bugungi kunda Hindiston Respublikasi bilan olib borilayotgan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o'rganish ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida alohida o'ringa ega. Ushbu davlat hozirgi dunyo geostrategiyasida o'z mavqeiga ega bo'lib, bir qator yangi, sanoat jihatidan rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Janubiy Osiyoning shitob bilan rivojlanayotgan mamlakatlaridan biri Hindiston Respublikasi bo'lib, ulkan iqtisodiy imkoniyatlarga egadir. Bu mamlakat o'z tashqi siyosat yo'lida tinchlik va xavfsizlik manfaatlarini himoya qilib, dunyo hamjamiyati mamlakatlari bilan o'zaro foydali va teng huquqli munosabatlar o'rnatmoqda. Hindiston Respublika tashqi siyosatidagi bunday yondashuvlar O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlarga bo'lgan qarashlariga to'liq mos kelishi ikki davlat o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarining rivojlanishiga asos bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining Janubiy Osiyo mintaqasida joylashgan barcha mamlakatlar, jumladan Hindiston bilan yo'lga qo'yilgan ko'p qirrali munosabatlar bugunga qadar alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'z ifodasini topgani yo'q. Shunga ko'ra O'zbekiston va Hindiston davlatlari o'rtasidagi aloqalarning ilmiy asoslangan holda tahlil etilishi tarx fanining xalqaro munosabatlari yo'nalishidagi bo'shliqni to'ldirishga xizmat

qiladi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi aynan shu bilan ham bog'liq.

Tadqiqotning davriy chegarasi. 1991-2010 yillarni qamqab oladi. Bu mustaqil O'zbekistonning tashkil topishi va rivojlanishining davridir. Bu yillarda mamlakatning o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqish, xalqaro maydonga yuz tutishini, tashqi siyosiy strategiyasi va tamoyillarining shakllanishi bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda O'zbekiston dunyo hamjamiyati mamlakatlari bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishg muvoffaq bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi va Hindiston o'tasida o'zining hamkorlik hamda shu davrda o'zining yangi rivojlanish pallasiga kiradi va taraqqiy etdi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati, xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti sifatida uning jahon hamjamiyatiga kirishi, xorijiy mamlakat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik masalalariga oid ko'plab adabiyotlar tahlil qilindi. Ular uch guruhga bo'lib o'rganildi.

1. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrida e'lon qilingan adabiyotlar, ilmiy maqola va tadqiqotlar.
2. Sobiq Ittifoq davrida chop etilgan adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar.
3. MDH mamlakatlari tadqiqotchilarining va xorijiy mualliflar tomonidan nashr etilgan tadqiqotlar.

Ilmiy adabiyotlarning birinchi guruhiga O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi davrda e'lon qilingan monografiya, ilmiy maqola va tadqiqotlar kiritildi. Bu adabiyotlarning o'ziga xos jihati shundaki, mualliflar milliy mustaqillik mafkurasiga tayangan holda mavjud muammolarni yoritishda eski aqidalarga emas, balki sifat jihatdan mutlaqo yangi konseptual-metodologik tamoyillarga tayanib ish ko'rilgan. Ular o'z asarlarida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati faoliyati asoslarining shakllanish va xalqaro maydonga chiqishi, xorijiy davlatlar bilan hartomonlama aloqalari, shuningdek

dunyo, hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi kabi masalalarni ilmiy tahlil qilganlar.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatiga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlar sifatida A. Qosimov, L.Petrov va I.Vaskin² kabi mualliflarning ishlarini qayd etish joiz. Bu mualliflar O'zbekistonning mustaqil davlat va jahon hamjamiyatining to'la huquqli a'zosi sifatida o'z tashqi siyosiy faoliyatining shakllantirishini hamda rivojlanishini yoritib berishga harakat qilganlar. A. Qosimov va I. Vaskinning rus tilida e'lon qilgan kitobida mualliflar O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq ishlab chiqilgan mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va yo'nalishlarini bayon etganlar, mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan olib borayotgan tashqi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalaridagi asosiy xususiyatlarni ochib berishga e'tiborni qaratishgan.

Ayrim mualliflar o'z asarlarida global iqtisodiy aloqalar rivojlanishidagi asosiy tendensiyalari va ularning O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga ta'sirini ilmiy jihatdan yoritganlar. Shuningdek, O'zbekistonning yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lish tarixiga ham e'tibor qaratilgan.³ Xususan, A. Alimov, A. Akilov, A. Bedrinsov, S.X. Ziyadullayev, A. Rasulov, Z. Boboxo'jayev va boshqalar milliy tashqi-iqtisodiy doktrinamizning vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini tavsiflab, uning hayotga tadbqiq etilishi va kelajakdagi istiqbollarini ko'rsatib o'tganlar. M.X Raxmonqulov va Z. S. Ubaydullayev respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini huquqiy yo'naltirish tizimini shakllantirishdagi tajribani umumlashtirganlar. S. Solixov O'zbekistonning jahon bozorlarga chiqishi

²Касымов А. Петова Л. Внешняя политика Узбекистана в света концепции ненасилия. -Ташкент. 1992
Касимов А. Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. -Ташкент, Узбекистан. 1994.

³ Алимов А. Внешнеэкономическая деятельность Республики Узбекистан взгляд в будущее- Ташкент, Узбекистан, 1992; Ўша муаллиф. Оценка итогов и хода экономическихреформ во внешне экономической деятельности за. 1995. //Экономика и статистика.- Т, 1996-№ 3-4. С. 34-43, Ўша муаллиф. Ўзбекистонда ташки савдо. // Иктисод ва ҳисобод. -Т., 1997. - №7,-Б. 42-44; Зиядуллаев С.К. Прогнозирований экономического разития Узбекистана в условиях перехода к рыночной экономике. Ташкент: Узбекистан, 1993; Расулов А., Бедринцев А., Акилов А. Узбекистан внешне экономическая деятельность и интеграции в мировой- хозяйство- Ташкент: Узбекистан. 1996; Расулов А. Экспортная стратегия национальной экономики. – Т., Фан . 1996; Бобооджаев З. Суверенный Узбекистан. Вопросы внутренней и внешнеэкономической политики.- Ташкент: 2005.

muammolarini yoritishga harakat qilgan. S. Usmonov bozor munosabatlarga o'tishning milliy modelini hayotga tatbiq etishda xalqaro iqtisodiy hamkorlikning rolini ko'rsatib o'tgan. I. G. Tursunmuhamedov o'z asarida qo'shma korxonalarning tashkil etilishi, ularni ruvojlantirishda uchrayotgan ob'ektiv va subektiv qiyinchiliklarni tahlil etishga bag'ishlangan.⁴

O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatidagi tajribaning ortib borishi, jahon hamjamiyatini bilan integrasiyalashuvi jarayoni Respublikaning xalqaro aloqalarini yanada chuqurroq ilmiy tahlil qilish zaruriyati yuzaga keltirdi. Shu ma'noda, O'zbekistonda Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro munosabatlar bo'yicha tadqiqot olib borayotgan E. Z. Nuriddinovichning ilmiy maqolalari⁵ alohida e'tiborga loyiq.

Ushbu mavzuni ochib berishda A. K. Qirg'izboyevning asarlari⁶ alohida ahamiyat kasb etadi. Ular asosan O'zbekiston Respublikasining Osiyo qita'sidagi xususan Hindiston Respublikasi bilan aloqalari va ularning rivojlanishiga bag'ishlangan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi" nomli monografiyasida muallif halqlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning tarixiy ildizlarini, Mustaqil O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarning hozirgi holati hamda istiqbollari bartaftil ilmiy tahlil etadi.

Bizning mavzumizni ilmiy tahlil etishda R. Asadovning tadqiqoti muhim manba sifatida xizmat qildi.⁷ Shuningdek, A. G'ofurovning "Hindiston" deb nomlangan asarida ushbu davlatning O'zbekiston Respublikasi bilan ijtimoiy-

⁴Рахмонкулов М. Х. , Убайдуллаев З. С. Фармиравание системы правового регулирования внешнеэкономической деятельности Узбекистана. // Общественные науки в Узбекистане. Т. , 1994.-№ 9-10. – С. 3-7; Салихов С.С. Выход из внешней рынок . // Экономика и статистика. Ташкент. 1995.- № 5-6. –С. 10-19; Турсунмухаммедов И. Г. Совместные предприятия и проблемы их развития. // Общественные науки в Узбекистане. Ташкент, 1993. №. 11-12,-С. 22-26; Усмонов С. Практическое осуществление собственной модели перехода к рыночным отношениям в Узбекистане // Экономика и статистика. - Ташкент. 1997.-№: 7-8.

⁵Нуриддинов Э. З. Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолияти асослари ва устувор йўналишлари // Ўзбекистон тарихи . – Т., 2000.- №4. Ўша муаллифлар. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. Т, Чулпон, 2002; Ўша муаллиф Становление и приоритетные направления внешней политики Республики Узбекистан // Ўзбекистон тарихи. – Т. №: 4,-Б. 3-11,

⁶Қирғизбоев А. К. Ўзбекистон ва Жаҳон. – Тошкент. 1997; Ўша муаллиф. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент: Фан, 2004.

⁷ Асадов Р. Б. Сотрудничество между Узбекистаном и Индией в области экономики и культуры исторические основы и современное состояние (1991-2001гг.). Автореф. Дис..... канд. Ист. Наук. – Ташкент, 2007.,-29.;

iqtisodiy, madaniy aloqalarining qadimdan hozirgi kunimizga qadar bo'lgan davri batafsil yoritib berilgan.⁸

Mustaqillik yillarida yaratilgan yuqorida qayd etilgan asarlar, ilmiy tadqiqotlar biz yoritayorgan mavzuning bosh manbasi sifatida foydalanildi. Asarlardan foydalanilgan mabalar qayta tahlil qilinib, matbuotdan olingan ma'lumotlar bilan to'ldirildi. Ilmiy adabiyotlarning ikkinchi guruhiga sobiq Ittifoq davrida chop etilgan adabiyotlarni kiritish mumkin. Ammo u asarlar kommunistik mafkuraga asoslangan holda yoritilgan bo'lsada, ba'zi manbalardan tahliliy foydalanish mumkin. Ulardan L. V. Mitroxin, P. A. Barannikov, V.L. Kornev, O. V. Malyarovlarning asarlarini misol keltirish mumkin.⁹ Ushbu asarlarda O'zbekiston Respublikasining sobiq Ittifoq davridagi cheklangan madaniy, ilmiy aloqalari haqidama'lumotlarni uchratish mumkin. Biz bu asarlardan mustaqillik yillariga qadar o'tmishda qanday tor doirada aloqalar olib borilganligini bilib olamiz.

Ilmiy adabiyotlarning uchinchi guruhiga MDH va xorijiy mamlakatlari tadqiqotchilarning ilmiy ishlari kiradi. Ularda xalqaro munosabatlarda ro'y berayotgan o'zgarishlar, yani jahon tartibotining shakllanishi, davlatlararo munosabatlar rivojining yo'nalishlari va ularning muayyan davlatning ichki ahvoli hamda taraqqiyotiga ko'rsatadigan ta'siri kabi masalalar bo'yicha e'tiborga molik ilmiy mulohazalar uchraydi.

Rossiyalik olimlar qalamiga mansub ko'plab ilmiy adabiyotlar orasida Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasidagi davlatlar, xususan, Hindiston Respublikasi muammolari, xalqaro jarayonlarda ularning mustaqil ishtroki masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar diqqatni tortadi. Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining bir guruh olimlari tomonidan tayyorlangan maxsus monografiya¹⁰ bu borada katta qiziqish uyg'tadi. Asarda

⁸Гофуров А. Хиндистон. Ижтимоий-иқтисодий, маданий, тарихий ва географик жиҳатлари. Тошкент, ; Молия,-2010.

⁹ Митрохин. Л.В. Индия ; вступая в век XXI. Политиздат, 1987 г. ; Баранников П. А. Бхарат-Индия. Л. , Наука, 1977.; Корнеев В. Л. Индия; 80-с годы . Москва, Мысль, 1986.4 Малайров. О.В государство в часный сектор экономики Индии. Москва, Наука-1984.

¹⁰Центральная азия по пути в мировое соощество. М. Инс. Востоковедение. -1995.-178 с. ;

Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining o'z mustaqil taraqqiyot yo'llarini tanlab olishlari, mintaqadagi har bir davlat tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari ochib berilgan. S. Jukov, Reznikov. O, P.Vinogradovalarning¹¹ ilmiy maqolalari ham diqqatga sazovordir.

Xorijlik mualliflar tadqiqotlarida biz mavzuning globallashuv jarayonlari, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalarini yoritgan tadqiqotlarga e'tiborni qaratdik. Bunday adabiyotlar orasida jahon tartiboti konsepsiyasining metodologik asoslarni ishlab chiqqan Z. Bjezinskiy, S. Xantington geosiyosat, geoiqtisodiyot va xalqaro munosabatlar masalalarini ilmiy jihatdan asoslab, mukammal o'rganishgan.¹²

Mavzuni yoritishda Hindiston davlatining tarixi, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida erishgan yutuqlari, Hindiston Respublikasining xalqaro maydonda olib borayotgan siyosatiga doir adabiyotlar keng o'rganilgan. Shunday qilib barcha ma'lumotlarni jamlab, ilmiylashtirilganda xalqaro munosabatlarda O'zbekiston va Hindiston davlatlari o'rtasidagi jarayonlar, globallashuv sharoitida shakllanayotgan yangi tartiboti va ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar haqida umumiy tasavvur hosil bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, tashqi siyosat va xalqaro hamkorlik masalalarga oid mavzular nafaqat xorijlik, balki O'zbekistonlik tarixchilar va siyosatshunoslarning ham e'tiborini tortmoqda.

Muammoning o'rganish darajasini tahlil qilish quyidagi xulosaga asos bo'lib xizmat qiladi:

Birinchidan, mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixi fanida mamlakatimizning tashqi siyosati va xalqaro hamkorligi masalalarini o'rganuvchi yangi ilmiy-tadqiqot yo'nalishi shakllandi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi har bir davlat bilan ikki tomonlama hamkorligi masalalarini ilmiy o'rganish jarayonlari

¹¹ Жуков С. , резникова О. Центральная Азия в мировой политика и эканомика// М .-1994.; винаградова Л. Экономическая интеграция в СНГ и опыттретьего мира// мировая економика и междун. Отношение отношения. 1995.-№ 9.

¹²Каранг Бжезинский З. Вне контроля. Глaбaльный беспорядок накануне XXIвек . // США. ЭПИ.- 1994. - №.- С. 121. ;Samuel P. Huntington. The Glash of Cwilization ?// Foreidn Affairs-Summer. – 1993.

kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston o'rtasidagi xalqaro hamkorlikni yoritib berishga qaratilgan ushbu mavzu tarix fanidagi eng yangi davr muammolarini qisman bo'lsada to'ldirishga xizmat qiladi degan fikrdamiz.

Tadqiqot mavzusining maqsad va vazifalari. Ushbu mavzuning Dissertatsiya sifatida tanlab olinishidan maqsad tarixiy dalillarga tayangan holda O'zbekiston Respublikasi va Janubiy Osiyo mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy sohalaridagi hamkorlikni Hindiston Respublikasi misolida ilmiy jihatdan ob'ektiv va holisona yoritishdan iborat.

- O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati yo'nalishlari tarixini yoritish;
- Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosat faoliyatida muhim yo'nalishlardan biri ekanligini asoslab berish;
- O'zbekiston va Hindiston Respublikasi o'rtasidagi munosabatlarida huquqiy asoslarning shakllanishini tahlil etish;
- O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi o'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi jarayonini ko'rsatish;
- Halq diplomatiyasi ko'p qirrali shakllarining davlatlararo munosabatlarini mustahkamlashda muhim omil ekanligini anglab yetish;
- O'zbekiston va Hindiston halqlari o'zrtasidagi qadimiy an'anaviy ko'p qirrali madaniy hamkorlikning asosiy shakllarini yoritish;
- O'zbekiston Respublikasi va Hindiston davlatlari o'rtasida madaniy-ma'rifiy sohalaridagi o'zaro manfaatli aloqalarni holatini ko'rib chiqish;
- O'zbekiston va Hindiston davlatlarining o'zaro manfaatli hamkorligini tahlil qilish asosida tegishli xulosalar chiqarish va kelgusi aloqalarni yanada jadallashtirishga qaratilgan tavsiyalar berish;

Mavzuning ochib berishda manbaviy asoslari. Mavzuning ochib berilishida oldiga qo'yilgan maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni hal etish jarayonida turli manbalardan olingan ko'p sonli material va hujjatlar o'rganib chiqildi hamda ilmiy muomalaga kiritildi. Tadqiqotning manbaviy

asosining davriy matbuot va internet saytlaridan olingan so'nggi ma'lumotlar tashkil qildi.

O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni, ikki mamlakat o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar rivojlanishni, xorijiy investisiyalarning kirib kelishi, iqtisodiyotining ustuvoq tarmoqlaridan tashkil etayotgan qo'shma korxonalar to'g'risidagi ko'pgina ma'lumotlar, davriy matbuot materiallari va internet saytida mavjud bo'lgan qimmatli manbalar tashkil etadi.

Mazkur mavzuni tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi va turli byulletenlar, davriy matbuot materiallari asosiy manbalar bo'lib xizmat qildi. O'zbekistonda nashr qilingan gazeta va jurnallardan O'zbekiston va Hindiston hamkorligiga oid turli xabarlar, tahliliy maqolalar va hukumat qarorlari tanlab olindi hamda dissertatsiyani yozishda foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining tadqiqot ob'ekti. O'zbekiston Respublikasining Hindiston bilan teng huquqli hamkorlik aloqalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish tadqiqotning ob'ekti sifatida tanlab olindi.

Dissertatsiya mavzusining yoritishda nazariy va uslubiy asoslar. Mavzuni yoritish jarayonida dissertant tomonidan tarixiy, tayanildi. Asosiy e'tibor yuz bergan voqealarning o'zaro dialektik aloqaladorligiga qaratildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga milliy va umuminsoniy qadryatlar, milliy istiqlol mafkurasidan kelib chiqqan holda yondashildi.

Tadqiqotning nazariy asosini O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov asarlari, ma'ruza va nutqlarida ilgari surilgan mamlakat taraqqiyotining "o'zbek modeli", uning ichki va tashqi siyosatdagi xususiyatlari, shakllanayotgan zamonaviy xalqaro munosabatlarda O'zbekistonning to'la huquqli ishtrokiga oid nazariy xulosalar tashkil etadi. Shuningdek, davlat vahukumat qarorlaridan ilgari surilgan ilmiy-nazariy, ma'naviy –mafkuraviy ahamiyatiga molik fikr-g'oyalar, metodologik va konseptual ko'rsatmalarga amal qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ishda O'zbekiston Respublikasi va Hindiston davlatlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikning o'rnatilishi va rivojlanish jarayonlari kompleks ilmiy tahlil qilingan.

Shuningdek, mavzuning ilmiy yangiligi quyidagi asosiy omillar bilan ham belgilandi:

- O'zbekiston Respublikasining o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan va milliy istiqlol mafkurasiga tayangan holda xalqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish holda xalqaro munosabatlarining yangi tizimini shakllantirish jarayonlarida bevosita ishtrok etishi O'zbekiston- Hindiston misolida yangi dalillar asosida ifodalab berildi.
- O'zbekiston va Hindiston davlatlari o'rtasidagi hartomonlama hamkorlik aloqalarining ilmiy jihatdan yoritishi mamlakatimiz tarixshunosligidagi xalqaro munosabat
- Xalqaro munosabatlarga bag'ishlangan yo'nalishning qisman bo'lsada yangi tadqiqot bilan boyitilishiga asos bo'ladi.
- O'zbekiston va Hindiston davlatlarining tashqi siyosatiga jahonda ro'y berayotgan jarayonlarga bo'lgan qarashlaridagi o'xshash jabhalar, ikki mamlakatning o'zaro teng huquqli aloqalarini o'rnatish va rivojlantirishdan manfaatdorligi aniqlaydi.
- O'zbekiston va Hindiston Respublikasi o'rtasida iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi hamkorlik jarayonini o'rganish va tahlil qilish, ikki mamlakat taraqqiyotiga qo'shayotgan samarali natijalar bilan bir qatorda, mavjud ayrim kamchiliklarni aniqlash va takliflar kiritishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati davlatlari bilan xalqaro hamkorligi masalalarini ilmiy yondashuv asosida o'rganish muhim jihatlaridan biridir. Tadqiqotda ilgari surilgan asosiy qoida, nazariy xulosa va tavsiyalar faoliyati va jahon hamjamiyati bilan yanaga integratsiyalashuviga oid istiqbolli dasturlarni ishlab chiqishga respublikaning tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatini

olib boruvchi davlat muassasalariga nazariy va amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida to'plangan va nazariy jihatdan umumlashtirilgan ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro hamkorlikgi masalalariga oid oquv-uslubiy ko'rsatma tayyorlashda, shuningdek bakalavriat va magistratura yo'nalishlariga "O'zbekiston tarixi", "Jahon tarixi" fanlaridan ma'ruzalar, maxsus kurslar o'qilishida qo'shimcha ma'lumotlar sifatida foydalanish mumkin.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Magistrlik Dissertatsiyasi mavzusi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat tarzida yoritib berilgan. Tadqiqotning umumiy hajmi 91betni tashkil etadi.

I bob. O'zbekiston va Hindiston davlatlari o'rtasida qadimiy hamkorlik aloqalarining asoslari.

1. O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy aloqalarining shakllanishi tarixiy bosqichlari.

O'zbekiston qadimdan o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda Hindiston bilan mustaqil tashqi siyosat asoslarining shakllantirib kelgan. Hindiston bilan Markaziy Osiyo halqlari o'rtasida tarixiy, iqtisodiy madaniy, savdo-sotiq va siyosiy munosabatlar juda qadimiy ekanligi tarixiy manbalar asoslab beradi. O'tmishga murojaat qilinganda, Hindiston bilan miloddan avvalgi I ming yillik oxirlarida qadimgi Baqtriya bilan, milodiy asrning boshlarida Kushonlar davlati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning rivojlanib borganligiga tarix guvohlik beradi. Buyuk ipak yo'lida savdo aloqalari ham uzoq asrlar davomida uzviy bog'liq bo'lib rivojlanib borgan. O'rta Osiyo halqlari bilan Hindiston o'rtasidagi munosabatlarni qadimiyligini arxeologik qazishmalar natijasida O'zbekistonning Janubiy hududlarida topilgan yodgorliklardan ham bilib olsak bo'ladi.

Grek-Baqtriya va Kushon podsholiklari davrida qurilgan saroylar va hashamatli va murakkab kompozitsiyaga ega bo'lgan obidalar topilganda Hindistondan budda dinining kirib kelishi va bu san'atda uyg'unlashuv jarayonini ko'rishimiz mumkin. Milodning dastlabki asrlarida O'zbekiston hududida, ayniqsa, janubda buddizmning tarqalishi bilan budda ibodatxonalari Holchayon, Qoratepa, Fayoztepa yodgorliklaridan topilganligi diqqatga sazovor. Termizdagi Zurmola tepaligidagi topilgan ibodatxonalarda Budda rivoyatlari syujetlari aks ettirilgan "O'tirgan Budda" haykali "Buyuk mo'jiza" kabi haykallardan Hindistondan kirib kelgan din bilan bog'liq badiiy uslub- yo'nalishlari shakllanib borganligini ko'ramiz. Hindistonning shimoliy-g'arbiy viloyati Gahara badiiy uslubi O'zbekistonning janubida keng tarqalganligini Surahondaryoning

ko'pgina shahar va qishloqlaridan topilgan haykaltaroshlik asarlari, devoriy rasmlarning qoldiqlaridan bilib olamiz.¹³

Hindiston va O'rta Osiyo halqlari o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va ilmiy munosabatlar tarixini biz Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asaridan ham bilib olsak bo'ladi. Ushbu asarda Hindistonning O'rta Osiyo halqlari bilan aloqalaridagi ko'p qirrali tomonlari ilmiy tahlil qilib berilgan. Yana bu asrning qiymatlilik darajasi shundan dalolat beradiki, bu asar shu paytda O'rta Osiyoning geografik tuzilishini asoslab bergan asarlar qatoriga kiradi. Shuningdek, Hindistonni o'rganishda Abdurazzoq Samarqandiy, Zahriddin Muhammad Bobur, G'iyosiddin Ali, Sharafiddin Ali Yazdiy kabilarning asarlari diqqatga sazovar. Yuqorida nomlari qayd etilgan tarixnavislar asarlari ikki davlat o'rtasidagi qadimiy aloqalar taxrixiga aniqlik kiritadi.

Hindistonda "Buyk mo'g'ullar davlati"ga asos solgan Zahriddin Muhammad Bobur ushbu mamlakat tarixida muhim rol o'ynagan. Boburiylar davrida Hindiston madaniyati, san'ati va iqtisodiyotida o'ziga xos o'zgarishlar sodir bo'ldi. Boburning "Boburnoma" asarida ham Hindistonning XVI asr birinchi yarimidagi geografik o'rni, aholining etnik tarkibi, tabiati, urf-odatlari, siyosiy boshqaruv tartiblari, savdo-sotiq va madaniy aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin.

Hindiston va O'rta Osiyo o'rtasidagi qadimdan boshlangan hunarmandchilik va savdo munosabatlari, ingliz mustamlakachiligi davrida ham to'xtab qolmadi. Hind va o'zbek halqlarining o'ta oz miqdorda bo'lsa ham, Hindiston hunarmandlari tomonidan yaratilgan maxsus milliy matolar, zargarlik, zeb-ziynat buyumlari Movarounnaxrning Marg'ilon, Qo'qon, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Qarshi kabi shaharlarida savdo qilganligi va o'zbek hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan ipak matolar, zargarlik

¹³Каранг. Пугаченкова Г. А. Ремпель Л. И. История искусство Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века, М., 1965., Ўша авторлар. Выдоющесся помятники исобразительного искусства Узбекистана. Т., 1960.

buyumlari Hindistonning ko'plab shaharlarida savdo qilinganligi yozma manbalarda qayd etilgan.¹⁴

O'rta Osiyo xonliklarida, xususan, Qo'qon xonligi tashkil topgan davrdan boshlab, Farg'ona vodiysi aholisi ham Sharqning eng boy mamlakatlaridan biri bo'lgan Hindiston bilan ham savdo hunarmandchilikni ayrim noyob turlari bo'yicha ayriboshlashni yo'lga qo'yishgan. Hindiston bilan O'rta Osiyo halqlarining savdo aloqalari, asosan, Buxoro amirligi hududi orqali o'tgan bo'lib, sharqda Farg'ona vodiysi orqali Qoshg'argacha, g'arbda esa Xiva xonligi bilan ikki tarmoqqa Kavkaz va Rossiyaga boradigan savdo yo'llari mavjud bo'lgan. Hindistondan O'rta Osiyoga yo'lga chiqqan savdo karvonlari Peshovordan Jalolobodgacha 3 kunlik yo'l bosgandan so'ng Qobulga kelgan. Amudaryodan o'tgan karvonlar dastlab Termizda so'ng Qarshida ma'lum bir savdo ishlarini amalga oshirishgan. Hind savdogarlarining Samarqandda to'xtab o'tishi uzoq cho'zilgan. Chunki Samarqand shahri XVIII-XIX asr boshlarida ham o'z nufuzini yo'qotmagan edi. Hind tovarlarining ma'lum bir qismini Qo'qon xonligida joylashgan yirik shaharlari bilan savdo qilish maqsadida karvon Toshkent, Xo'jand, Qo'qon, Marg'ilon tomonga yo'l olgan. Qo'qon shahrida joylashgan.

XIX asrning 60 -yillarida bunyod etilgan Xudoyorxon O'rdasining hozirgi kundagi tarixiy muzeyida hind savdogarlarining o'sha davrda xonlik bozorlariga y kelgan namunalari mavjud. O'rta asrlardan keyingi davrlarda Buyuk Ipak yo'li o'z nufuzini yo'qotib borgan bo'lsa-da, ammo Hindiston va xonliklar o'rtasidagi savdo aloqalari to'xtab qolmadi.¹⁵

Hindistonga boradigan savdo yo'llari nihoyatda og'ir va xavfli edi. Shu boisdan ham Panjob va ishkorpurlik afg'on va hindlardan iborat qo'riqchilar Hindistonga chiqqan karvonlarni nazorat qilib borganlar. Hindlarni Povinda deb nomlanuvchi mashhur qabila a'zolari karvon xavfsizligini ta'minlash jarayonida o'zlari ham savdo ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar.¹⁶

¹⁴Гофуров. А. Хиндистон. Т. 2010., 107- бет.

¹⁵Халқ сўзигаъетаси. 1994 й. 22 июн сони.

¹⁶Гофуров А. Хиндистон. Т., 2010., 127-бет.

Qo'qon xonligidan Hindistonga yuboriladigan mollarning asosiy qismini ipak matolar tashkil qilib, uning "chilla" deb ataladigan turi boshqa Sharq mamlakatlaridagi kabi mashhur bo'lgan. Ularning bahosi XIX asr o'rtalaridagi ma'lumotlarga qaraganda, ancha yuqori baholangan bo'lib, bir to'pi Qo'qon xonligi bozorida rus pulida 197 rubldan ham yuqori narxda sotilgan. Bu ipakning Buxoro bozorlaridagi narxi esa 240 rublgacha bo'lgan. Shuningdek, Buxoro bozorlarida Xo'jand ipagi ham mashhur bo'lib, uning narxi Qo'qon ipagidan bir oz arzonroq edi. Ya'ni, Qo'qon ipagining bir pudi 16 Buxoro tillosida baholansa, Xo'jandning 15 tilloga to'g'ri kelgan. Qo'qon ipagi Buxoro bozoridan Afg'oniston, Hindiston va boshqa hududlarga olib ketilgan. Ma'nbalarda ta'kidlanishicha, Qo'qondan Buxoroga bir yilda 8 ming pudgacha ipak va ipak matolar keltirilgan hamda ularning katta qismi Hindistonga olib ketilgan.¹⁷

Hindistonga Qo'qon va Buxoro amirligidan har yili 1000 ta tuyada ipak matolarini jo'natib turishgan. Bu yuk hajmi o'rtacha 12 ming pudni tashkil qilar edi. XIX asrning 30-yillarida Hindiston Afg'oniston orqali O'rta Osiyoga kelgan ingliz josusi A. Bornsning ma'lumotlariga qaraganda Qobul orqali Qo'qon xonligidan olib borilgan. O'z navbatida, Hindistondan O'rta Osiyoga shu yo'llar orqali attorlik buyumlari, dorivor o'simliklar, turli xil matolar, Kashmir ro'mollari, hind parchalari, kitoblar, indigo (nil bo'yog'i), murch, shakar, sallali surp, doka, chit, chinni buyumlar, qimmatbaho toshlar, ingliz mollari va boshqa buyumlar keltirib turilgan.¹⁸

Hindiston bilan Buxoro o'rtasidagi savdo aloqalarida Eron ham muhim rol o'ynagan. Hindistondagi Magihadga borgan karvonlar Eron mollarini ham ayriboshlashgan va O'rta Osiyoga olib kirishgan. Hind savdogarlari Erondan o'z mollarini ayriboshlab Buxoroga shoyi va shivit ro'mollari, ip gazlamalar, ingliz chitlari, doka, surp va gilamlar ko'p miqdorda firuzalar keltirib sotishgan.

¹⁷Гофуров А. Хиндистон. Т., 2010., 127-бет.

¹⁸Уша асар. Т., 2010., 128- бет.

Shuningdek, zarbof, murch, zira, do'ppi kabi ko'plab mollar ham olib kelinar edi.¹⁹

Buxorodan Hindistonga, asosan, ko'p miqdorda qorako'l terilar olib ketilgan: u n qorako'l Angliyaga chiqarilgan. Inglizlar esa o'z mollarini hind savdogarlari orqali O'rta Osiyo, jumladan, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligidagi yirik shaharlar bozorlariga yuborib turishgan. O'rta Osiyo savdogarlari Hindistonga mahalliy mollarni chiqarishdan tashqari choy, qog'oz, "rus charmi", chit ro'mol, movut, ko'zgu, billur, chinni, temir, mis, sandiq kabi boshqa davlatlardan keltirilgan mahsulotlar hamda rus va o'zlarida zarb qilingan tillo tangalarni ham o'tkazib turganlar.

Shuningdek, o'zlarining o'rtacha sifatli parchalari, ipak va paxta matolarini sotish uchun Orenburgga olib borgan xivaliklar u yerda rus mollarini olib, Buxoro va Hindistonga borishgan, u yerdan olib qaytgan mollarini esa Orenburgda sotganlar.²⁰

O'rta Osiyo xonliklarining Hindiston va boshqa Sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdoning rivojlanishida Makka va Madinaga yo'l olgan xojilar ham ma'lum darajada ro'l o'ynagan, ziyoratga asosan badavlat kishilar chiqqanligi bois, o'z mollari bilan karvonlarga kelib qo'shilgan ziyoratchilar yo'l-yo'lakay turli mamlakatlarda qizg'in savdo olib borishgan.

Bu haqda 1863-yilda ko'plab Sharq mamlakatlari, jumladan Turkistonning ko'plab shaharlarida bo'lgan venger sharqshunosi A. Vamberi O'rta Osiyolik xojilar Buxoro va Xivada boqiladaigan ot va xachirlar hamda boshqa mollarni katta miqdorda sotish uchun Eron, Bog'dod, Damashq, Hindiston va Misrga olib borganliklari haqida yozib qoldirgan.²¹

O'zbek xonliklarining Hindiston bilan iqtisodiy va diplomatik munosabatlari uzoq tarixga ega. O'z vaqtida Buxoro savdo karvonlari Kal'kutta, Kashmir, Astrobod, Mozondaron, Lohur kabi katta savdo-sanoat shaharlari bilan

¹⁹ Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. Республика илмий анжумани материаллар тўплами. Фарғона. 2009., 211-бет.

²⁰ Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. Республика илмий анжумани материаллар тўплами. Фарғона. 2009., 212-бет.

²¹ Вамбери. А. Путешествие по Средней Азии из тегерана через Туркменскую пустыню. 1867, стр. 210.

savdo qilar edilar. Manbalarda ta'kidlanishicha, Panjobdan Buxoroga nil bo'yog'I ko'plab miqdorda olib kelinib turishi qayd etilgan.²² Bu xom ashyo to'qimachilik va Rossiyaga chiqarish uchun muhim ahamiyatga ega edi. Kashmirdan turli rangdagi har xil ro'mollar keltirilardi.

Hindistondan ingliz ipak gazlamalari, Peshavordan Buxoro orqali O'rta Osiyoga oq va havo rang kiyimliklar, guruch, tuya terisi, tuya terisidan yasalgan tarozi va misqol tarozilar ko'p olib kelingan. Hind savdo karvonlarining ko'pchiligi, Eron savdo karvonlari kabi ingliz hukumatining gumashtalari bo'lib, ular O'rta Osiyo bozorlariga keltirib sotadigan mollarning asosiy qismini oltin tangaga sotar edilar. Inglizlarning ko'p yillik shunday xatti-harakatlari tufayli o'lkadan oltin tangalarning ko'p miqdori chiqib ketishiga, pul muomalasining buzulishiga sabab bo'lgan.

Buxorodan Hindistonga chiqarilgan qorako'l terilar u yerda Yevropa mamlakatlariga yuborilgan. Shuning uchun ham qorako'l teri ichki va tashqi savdoda muhim ahamiyatga ega edi. Buxoroda eng yaxshi o'n dona qorako'l teri 5-6 tilloga baholangan. Bu haqda Buxoroda bo'lgan P.I. Demezov va I. V. Vitkevich o'z yozuvlarida qorako'l teri chet ellarda katta foyda keltiruvchi mol ekanligi haqida yozadilar.²³ O'rta Osiyodan Hindistonga ipak va ipakli har xil kiyimlar, echki tiviti, yaxshi otlar, xachir olib ketilar edi. Hindiston bilan o'zbek xonliklari o'rtasida savdo munosabatlarining rivojlanib borishida Turkistonga sudxo'rlik kapitali ham kirib kela boshlagan. XIX asrning 30-50- yillarida hind sudxo'rlari mablag'ini qarzga berib, katta foyda ola boshlaganlar. Sudxo'r hindlarning yana bir qismi esa ulgurji savdo bilan shug'ullanganfi: ular Buxoro va boshqa shahar bozorlariga kelgan ba'zi mollarni savdo karvonlaridan ko'tarasiga sortib olib, qiymat bahoga sotar edilar.

Xullas, tarixiy manbalardagi ma'lumotlar har qanday qiyinchiliklar va muammolar o'zbek xonliklari, shu jumladan Qo'qon xonligining Sharq

²² Записки о Бухарском ханства (Отчёты П. И. Демезона и И. В. Виткевича) .- М., 1983. Стр. 79.

²³ Записки о Бухарском ханства (Отчёты П. И. Демезона и И. В. Виткевича) .- М., 1983. Стр. 80

mamlakatlari bilan an'anaviy savdo aloqalarini batamom to'xtatib qo'ya olmaganligini ko'rsatadi.

XIX asr o'rtalariga kelib O'rta Osiyo bozori uchun Angliya va Rossiya o'rtasida kurash boshlangan. Chor Rossiyasi O'rta Osiyoning bir qismini bosib olgandan so'ng, ingliz va hind mollari ta'qib ostiga olingan. Qo'qon xonligiga hind va ingliz mollari deyarli kelmay qo'ygan. Xonlikka ingliz va hind mollari asosan Kashmir orqali keltirila boshlangan. Bu jarayon Qo'qon xonligi tugatilgunga qadar davom etgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O'rta Osiyo hamda Hindiston halqlari tarixi birbiri bilan chambarchas bog'liq va u uzoq yillik tarixga ega. Ikki hududhalqlari asrlar mobaynida iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqada bo'lganlar. Bu tarixiy aloqalar XVIII-XX asr boshlariga kelganda ham uzilib qolmadi. Garchi Qo'on xonligi chegarasi Hindiston sarhadlari bilan bevosita tutashmagan bo'lsada, o'zaro savdo aloqalari yil bo'yi davom etgan. Bu iqtisodiy aloqalar har ikki tomon uchun ham foydali edi. Bunday iqtisodiy siyosiy va madaniy aloqa yo'llari O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yanada kengaymoqda. Hindiston va O'zbekiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning hozirgi davrda taraqqiy etishiga o'tilishidagi munosabatlar asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi.

2. Hindiston mustaqilligi uchun kurash yillari hamda XX asr 50-90-yillarida O'zbekiston bilan o'zaro hamkorlik aloqalarining cheklanganlik sabablari.

Hindiston yarim oroli va O'rta Osiyoning bepoyon hududi qadimgi madaniyat markazlaridan bo'lganligiga tarix guvohdir. Ko'p asrlar davomida bu regionlar halqlarini ma'naviy yaqinlik va savdo-iqtisodiy aloqalar birlashtirib turgan. Asrlar davomida Hindistonga savdogarlar, hunarmandlar, din namoyondalari, sayyohlar doimo safar qilib turishgan, hatto ularning ayrimlari Hindiston yerida butunlay yashab qolganlar. Hindlar ham O'rta Osiyoning bir qancha shaharlariga savdogarchilik va boshqa maqsadlarda kelib turishgan. Bunga XVII-XVIII asrlargacha O'rta Osiyoning bir necha shaharlarida mavjud bo'lgan hindlarning kaloniyalari misol bo'la oladi.²⁴ Ikki davlat o'rtasidagi jo'g'rofiy yaqinlik, halqlari ikki davlat o'rtasida iqtisodiy, madaniy aloqalarning paydo bo'lishiga turtki bo'lib, doimiy ravishda davomiyligini ta'minlagan.

Ikki halq o'rtasidagi o'zaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar Hindistonni inglizlar tomonidan XVIII asrning 70-yillaridan mustamlakachilik asosida boshqarish tizimiga o'ta boshlagandan so'ng sekin-asta pasaya boshladi. Hindiston 1833 yilda Ost-Indiya kompaniyasining kaloniya asosida boshqarish tizimiga bo'ysundirildi. O'rta Osiyoda xonliklarning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishi, ingliz –rus qarama-qarshiliklari ikki halq o'rtasidagi o'zaro erkin aloqalarini barcha jihatlarida to'xtalib qolishiga asosiy sabablardan biri bo'lib qoldi.²⁵

Asrlar o'tsa ham Hindistonga bo'lgan qiziqish so'nmay boraverdi. XIX asrning ikkinchi yari va XX asrning boshlarida O'rta Osiyoga kelib buning o'lkalarda yashab qolgan hindlarning soni 6,7 ming kishini tashkil etgan bo'lib, ular asosan Samarqand, Buxoro va Farg'ona vodiysi hududlarida yashar edi.²⁶ Ularning ayrimlari uy-joy, bog'lar, karvonsaroylarga egalik qilishar

²⁴ Аъзамова С. Обидов Б. Ҳозирги Ҳиндистон. Тошкент. Фан. 1991. -49-бет.

²⁵ www.kiep.go.kr. Кеча ва бугун.

²⁶ Аъзамова С. Обидов Б. Ҳозирги Ҳиндистон. Тошкент. Фан. 1991. -49-бет. 52-бет

edi. Hindistonda inglizlar hukumronlik qilgan davrda ikki halq o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar deyarli to'xtab qolgan edi.

Iqtisodiy aloqalar Hindiston mustaqillikka erishgandan so'ng biroz jonlandi. XX asrning 50-yillaridan keyin O'zbekiston-Hindiston davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar "Markaz"ning nazorati ostida bo'lsada, birmuncha tiklanganligini ko'ramiz. 1960 yilda O'zbekiston korxonalari o'zlarini ishlab chiqqan mahsulotlarning dastlabki turkumini Hindistonga jo'natishgan edi. O'zbekiston o'sha yillarda sobiq Ittifoq Respublikalari ichida Rossiya va Ukrainadan keyin ushbu davlatga mahsulot eksport qilish bo'yicha uchinchi o'rinni egallagan.²⁷

Shunga ko'ra, Toshkent elektrotexnika, Chirchiq transformator, Andijon mashinasozlik zavodlari Hindistonning metallurgiya kompleksi uchun asbob-uskunalar yetkazib turgan. Bundan tashqari xuddi o'sha korxona uchun O'zbekiston transformator podstansiyalari va kabel mahsulotlari ham jo'natib turilgan. O'zbekiston sanoat korxonalari, shuningdek, asbobsozlik, ko'mir qazib chiqarish va elektr quvvati ishlab chiqarish tarmoqlariga ham o'z mahsulotlarini yetkazib berib turgan.

Hindistonning to'qimachilik sanoati rivojlangan bo'lib, o'tgan asrning 90-yillariga qadar Toshkent to'qimachilik mashinasozligi zavodi "Toshtekstilmash" bilan aloqalari yaxshi bo'lgan "Toshkestilmash" zavodi Hindiston to'qimachilik korxonalarining bir qismiga dastgohlar o'rnatib berib turgan.

1990 yilda O'zbekiston Hindistonga sanoat mahsulotlarining qirqdan ortiq turini eksport qilgan. Ular orasida ko'tarma kranlar, kimyo sanoati uchun asbob-uskunalar, kino asboblari, kabel elektrotexnika mahsulotlari hamda gidrometrologiya asboblari bo'lgan.²⁸ O'zbekiston zavodlari markazi bilan paxtachilik sohasida ishlatiladigan qishloq xo'jalik texnikasiga ham hind dehqonlari orasida talab katta bo'lgan. O'sha paytda O'zbekistondan borgan mutaxassislar Bxilol va bokaro metallurgiya zavodlarini barpo etishdi. Ranchi

²⁷Аъзамова С. Обидов Б. Ҳозирги Ҳиндистон. Тошкент. Фан. 1991. -50-бет..

²⁸Ўша асар. Тошкент. Фан. 1991. -54-бет

,Durgapur, Hardvardagi zavodlar, Barauni va Koyaladagi neftni qayta ishlash korxonalarida rekonstruksiya ishlarini qilibberishgan. O'z o'rnida Hindistondan ham ko'plab mutaxassislar O'zbekistondagi zavod-fabrikalar, laboratoriya, meditsiyna va qishloq xo'jaligi bo'yicha turli sohalar yo'nalishida tajriba almashinib turilgan.

O'z navbatida Hindiston ham O'zbekistonga ko'plab sanoat mahsulotlari elektromotorlar, alyuminiydan ishlangan kabellar, jarrohlik asboblari, dori-darmonlar, ko'zoynaklar uchun linzalar, mashinada to'qilgan gilamlar, bo'yoqlar, qimmatbaho toshdan yasalgan (dur, lal) bezaklar, gazlamalar, kiyim-kechaklar, oyoq kiyimlari, choy,tamaki mahsulotlari, kofe, oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan turli dorivorlar yuborib turgan. Toshkentdagi Hindistonda ishlab chiq arilgan mollarni sotish uchun ochilgan "Ganga" universal magazini ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi savdo-sotiqni iqtisodiy aloqalar davlatlarning manfaatlarini, mustaqilligini chuqur hurmat qilgan holda, tenglik va o'zaro manfaatdorlik asosida olib borilgan.

O'zbekistonda bizga hamdo'st bo'lgan davlatlarning xalqaro yarmarkalari o'tkazililishida Hindiston delegatsiyalari ishtrok etishi, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnik aloqalarni chuqurlashtirishning yo'llaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Yarmarkalarda hind firmalari O'zbekistonda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik texnikasini, to'qimachilik asbob-uskinalarini, o'zbek milliy ayollar poyafzalini, bosh kiyimlarini, musiqa asboblarini va boshqa mahsulotlarni sotib olishlik uchun shartnomalar tuzilganligi diqqatga sazovordir.²⁹

Bunday yarmarkalar O'zbekistonda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarini keng targ'ib qilish, ularning eksport salmog'ini oshirish bilan birga ikki mamlakat halqlari o'rtasidagi an'anaviy hamkorlikni, do'stona munosabatlarni yana qayta tiklanishiga sabab bo'lgan

²⁹Ўзбекистонда ижтимоий фан. 2005 й. № 1-2 Б 60-65

O'zbekistonda ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar Hindiston bilan O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib borgan. O'tgan asrning 90-yillariga kelib, ko'pgina qo'shma korxonalar qurish imkoniyati hamda ayrim korxona va birlashmalarning bevosita Hindiston firmalari va konsernlari bilan aloqa o'rnatish mumkinligini paydo bo'lishi ikki mamlakating o'zaro iqtisodiy aloqalariga yangicha ruh, yangi istiqbollarga ma'lum ma'noda imkoniyatlar yaratdi.

Davlatlarning o'zaro munosabatlarida ijtimoiy aloqalar muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning jamoatchilik vakillarining tashabbusi bilan chet ellar bilan do'stlik va madaniy aloqalar bo'lishining O'zbekiston jamiyati qoshida 1958 yilda O'zbekiston-Hindiston do'stlik bo'limi ochildi. Bu jamiyat qoshida 40 dan ortiq boshlang'ich tashkilotlar bo'lib, ular o'zida minglab kollektiv va mustaqil a'zolarining birlashtirgan.³⁰ Kollektiv a'zolikka korxonlarning yetuk mutaxassislari, xizmatchilar oliy o'quv yurti talabalari va o'quvchilar, ijodiy jamoatlarning a'zolari kiradi. O'zbekiston-Hindiston do'stlik jamiyati mamlakatimiz halqlarini hind halqining hayoti, madaniyati, tarixi bilan tanishtirib borish borasida ko'p ishlarni amalga oshirib borgan. Jamiyat Hindistonning milliy bayramlariga atab muntazam ravishda kechalar, yig'inlar, seminarlar, shuningdek Hindistonga bag'ishlangan ma'ruzalar va kinofilmlar ko'rsatuvi tashkil qilingan; turli ko'rgazmalar, Hindistondan kelgan delegatsiyalar bilan uchrashuvlar o'tkazilgan; atoqli hind shoiri va yozuvchilari, siyosiy rahbarlarini yubileylari nishonlangan; hind halqining tarixiy va an'anaviy bayramlariga bag'ishlangan turli kechalar tashkil qilingan. Hindiston halqlarini o'zbek halqining hayoti, madaniyati, tarixi bilan tanishtirish maqsadida jamiyat tomonidan tayyorlanib, Hindistonga axborot materiallari yuborib turilgan. Ammo bu ishlar amalga oshirish oson bo'lmagan. Chunki sobiq Ittifoq markazdan turib do'stlik jamiyati faoliyatini doimiy nazoratda ushlab turgan. Har-bir sohadagi munosabatlar "Markaz" tomonidan qattiq nazorat ostida ushlab turilgan.

³⁰ Политика Индии в Центральной Азии. Аспекты Узбекского-индийского сотрудничества. Т.; 2007.-16С.

O'zbekiston-Hindiston do'stlik jamiyatining ishtrokida turli mavzularda simpoziumlar, seminarlar ham muntazam ravishda tashkillashtirib borilgan. Hindistonlik do'stlar jamiyat manziliga xatlar yozishib, o'z joylaridan ularni qiziqtirayotgan narsalar haqida ma'lumot berishlarini yoki birorta kitob, jurnallar yuborishlarini iltimos qilib ham yozgan maktublari bo'lgan. Jamiyat tomonidan yuborilgan axborot, tijorat va ma'lumotlar hamda ko'rgazmalardan Hindistonda O'zbekistonga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirlar davomida foydalanib kelingan.

1958 yilda jamoatchilik orqali xalqaro aloqalarda ishtrok etish maqsadida maxsuslashtirilgan ommaviy ijtimoiy tashkilot "Chet ellar bilan do'stlik va madaniy aloqalar bog'lash O'zbekiston jamiyati" (O'z ODKS) ning tuzilishi avvalo xorijda yashayotgan muxojir o'zbeklarning talab va istaklari asosida tashkil topgan edi. Do'stlik jamiyatini tuzishda va uni faoliyatini xorijiy mamlakatlar bilan olib borishda akademiklarda T. N. Qori Niyoziy, G'ofur Fulom, Yunus Rajabiy, jurnalistlardan Ziyo Aminov, Jahongir Abdurahmonovlarni xizmati katta bo'lgan.³¹

O'z ODKS ning plenium va anjumanlarida (1966 va 1973 yillarda) bo'lim a'zolari respublika jamoatchiligiga ushbu xayrli ishda ishtrok etishga da'vat qiluvchi murojaatlar bilan chiqishadi. 1964 yil 17 iyulda O'z ODKS ning V-pleniumida T. n. Qori Niyoziy barcha yozuvchilar, olimlar, musiqashunoslar o'z kuchi va imkoniyatidan foydalanib, bizning radioeshittirishlarimizda, turli mazmundagi to'plamlar tayyorlashda va har bir vatandoshilarimiz (muxojir o'zbeklar) ga O'zbekiston haqida ma'lumot berish ishida ishtrok qilsinlar³² - degan fikrini bildiradi. Muhojir o'zbeklar bilan O'zbekiston o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish, shuningdek Hindiston va boshqa xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalarni yanada mustahkamlab borish maqsadida O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqasi jamiyati tomonidan "Oydin" gazetasining 1-soni Turkiyaga (150 nusxa), Germaniyaga (150 nusxa), Suriya Arab

³¹Хайитов Ш. А. Ўзбек мухожирлиги тарихи (1917-1991 йиллар). Т. 2008.- 167-бет

³²Уша китобдан. – 168 бет.

Respublikasiga (25 nusxadan) yuborildi.³³ Ushbu mamlakatlardagi sovet elchixonasining elchilari A.A. Smirnov (Turkiya), S. K. Koropxin (GFR), N. M. Pechov (Hindiston), S. V. Dekterov (Pokiston) kabilar “Oydin” gazetasini tarqatishda katta qiyinchiliklarga duch keldilar.³⁴ Muhojir o'zbeklar ittifoq elchilari orasida birorta o'zbek millati vakili yo'qligi va “sovet ayg'oqchisi” degan nomni olmaslik uchun Sovet Ittifoqi elchixonalari bilan deyarli aloqada bo'lishmagan. Qat'iy nazorat va maxsus ko'rsatmalar asosida ish olib borgan “Chet ellar bilan do'stlik va madaniy aloqalar bog'lash O'zbekiston jamiyati” mazkur tashkilot sovet mafkurasi va siyosiy “chizig'i” ta'siridan chetga chiqa olmadilar. Natijada mustaqillikka qadar O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan aloqalari e'tiborga loyiq rol o'ynay olmadi.

O'zbekiston- Hindiston davlatlari o'rtasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniya aloqalarining Sovet davlati davridagi tarixiga nazar tashlar ekanmiz savol tug'iladi. Avvalo, O'zbekistonning mustaqil tashqi aloqalari bo'lganmi? Ittifoq konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan tashqi munosabatlarga mustaqil ravishda kirishishi, ular bilan shartnomalar tuzish va diplomatiya vakolatxonalarini ayriboshlash, xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish huquqi quruq targ'ibot xususiyatiga ega bo'lib qolaverdi. Real hayotda O'zbekiston unitar (qo'shma) Sovet davlati bo'lgan mustabid tuzumning imperiyacha kishanida bo'lib, xalqaro maydonga mustaqil ravishda chiqish imkoniyatlaridan butunlay maxrum edi, tashqi siyosatga doir davlat institutlariga, tashqi aloqalarni o'z ixtiyori bilan o'rnatish huquqiga ega emasdi. Xalqaro aloqalar faqat Moskvaning ruxsati bilan, qattiq nazorat ostida amalga oshirilardi.³⁵ Natijada respublikaning tashqi aloqalari, bordi-yu, namoyon bo'lsa ham nihoyatda cheklangan va sinfiy-mafkuraviy yo'nalishi bilan ajralib turar, avvalboshdanoq mustaqillikdan mahrum etilgan edi. Aslida, umumma'naviyat nuqtai nazardan olganda, mustaqillik va teng huquqlik mezonlaridan kelib chiqib, bu aloqalarni huquqiy xalqaro hamkorlik deb ra'riflab bo'lmasdi. Chunki ular

³³Хайитов Ш. А. Ўзбек мухожирлиги тарихи (1917-1991 йиллар). Т. 2008.- 176-бет

³⁴Ўша манба. - 195 бет.

³⁵ Жамият ва бошқарувгазетаси. 2005 й 3 2 Б 60-65

sovet tizimi mantig'iga asoslangan va Markazning ko'rsatmasi ta'sirida bo'lib, uning strategik siyosiy yo'l –yo'riqlari bilan belgilanardi.

Shu bilan birga, sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonning xalqaro hayotdagi ishtrokini butunlay inkor qilish ham xato bo'lar edi. Bunday inkor bizning tariximizni kambag'allashtirib qo'yar, hatto murakkab imperiyacha-mustabid tuzum sharoitida ham xalqaro maydonda o'zini ko'rsata olgan, respublikaning obro'-e'tiborini ko'tarishga harakat qilgan o'zbek halqining milliy intilishlarini nazar-pisand qilmaslik bo'lardi. Yuqorida biz O'zbekiston-Hindiston davlatlari o'rtasida olib borilgan tashqi aloqalar misolida ham ba'zi-bir xulosalarni chiqarishimiz mumkin. Prezidentimiz Islom Karimov asosli tarzda ta'kidlab o'tganidek, “diyorimiz kishilari qadim zamonlardan o'zlariga ma'lum bo'lgan insoniyat bilan hamfikir bo'lib keldilar, yaqindan aloqa bog'lab yashadilar”³⁶. Binobarin, yaqin va uzoq halqlar hayotini bilishga bo'lgan qiziqish tuyg'usini, ular bilan hamkorlik qilishga bo'lgan ehtiyojini hatto sovet mustabid davlat mashinasi ham yo'qota olmadi. Shundayholatda bo'lgan O'zbekiston halqi, garchi aytarlik darajada bo'lmasa ham, xalqaro aloqalar o'rnatishning tobora yangi-yangi shakllarini izlab topdi. Zotan masalalaridan turib nazar tashlaganda, shu narsa yaqqol ko'zga tashlanadiki, o'zbek halqining milliy ruhiga xon bo'lgan ijodkorlik dahosi, azaliy insonparvarligi tufayli, imperiya zo'ravonliginining og'ir yillarida ham Markaz tomonidan qilingan o'zgarishlar va qing'irliklarga qaramay, uning toplagan xalqaro hamkorlik tajribasi salmoqli yaratuvchanlik imkoniyatlariga ega bo'lib, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Shuni ham aytish kerakki, jahon siyosiy hayotida XX asrning 50 – yillaridan boshlab ko'zga tashlangan o'zgarishlar Sovet davlatining xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik qilish makonini sezilarli ravishda kengaytirdi. SSSRning eksportga mol chiqarishi keskin ortdi, bunda O'zbekistonning ham hissasi salmoqli bo'ldi.

Ittifoq organlarining qat'iy nazorati ostida amalga oshirilgan O'zbekiston xalqaro xojalik aloqalarining rivojlanishi uchun moddiy asos uning ishlab

³⁶Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқилол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд.- Т., 1996, 78-бет

chiqarish sanoatining o'sishi bo'ldi. Markaz avvalgidek O'zbekistonga xom ashyo bazasi rolini yuklab, dastavval respublika qishloq xo'jaligi mahsulotlarini: paxta tolasi, qoraqo'l terisi va ipakni eksport qilar edi. Ushbu mahsulotlar Hindiston Respublikasi bilan ham boshqa davlat qatori Markaz bilan tuzilgan shartnoma asosida eksport qilish ham ortib bordi. Faqat 1950-1960 yillarning va asbob-uskinalar eksport qilishi ortib borganligini ko'ramiz.

XX asrning 80-yillarida respublika ittifoq organlari orqali deyarli 90 ta xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqa o'rnatgan edi. Shuningdek, Hindistonga ushbu yillarda o'ndan ortiq turdagi tovarlar eksport qilib turgan.³⁷

Keltirilgan bu faktlar O'zbekiston o'z halqining yaratuvchanlik mahnati tufayli ittifoqning eksport imkoniyatlariga juda katta hissa qo'shganligidan dalolatdir. Vaqt o'tishi bilan xalqaro imliy-texnikaviy va madaniy hamkorlikning zaif tomonlari sun'iy to'siqlarni yengib bordi va faol ishtroki bilan 1966 yilda Toshkentda Hindiston bilan Pokiston o'rtasidagi tinchlik bitimi imzolandi; Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi fan va madaniyat xodimlarining xalqarosimpoziumlari, konferensiyalari, ijodiy uchrashuvlari, xalqaro kinofestivallari o'tkazila boshlandi.³⁸ Ayniqsa, bizga ma'lumki, xalqaro kinofestivalda uzluksiz ravishda Hindiston kino san'ati ustalari tashrif buyurib turishgan. Mashhur aktyorlardan Radj Kapur, Ximma Malina, Shishi Kapur kabilar Toshkentga kelib festivalda juda katta taa'ssurot bilan qaytishgan edi. XX asrning 60-70-yillar chegaralarida qo'llanilayotgan "sotsialistik integratsiya" bilan bir qatorda ittifoq rahbariyati mustamlakachilik qaramligidan ozod bo'lgan va rivojlanib borayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarini sovetlar ta'siriga tortish vazifasini hal qilishga tobora ko'proq e'tibor bera boshlandi. Shunga muvofiq sobiq SSSR ning "uchinchi dunyo" bilan ishlab chiqarishi keng miqyos kasb eta boshladi. Ayniqsa, Markaziy- Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni o'rnatishda O'zbekiston muhim rol o'ynashiga e'tibor qaratildi. Bu hol O'zbekistonlik mutaxassislarni navbatdagi oqimini o'sha mamlakatlarga yuborishga taqozo etdi. Xususan,

³⁷ Киргизбаев А.К. Научно-техническое и культурное сотрудничество Узбекистана со странами Азии в 80-годы. Автореф. Дис. канд. ист. науки. - Т., 1991., С. 20.

³⁸ Ўзбекистон янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т. 2000., 604-бет.

“O‘zbekiston vakillari “o‘zlarining baynalminal burchlari”ni bajara borib, Afg‘oniston, Hindiston, Pokiston, Eron, Iroq kabi davlatlarga muhim xo‘jalik ob‘yektlarini (zavod va fabrikalar, kon-qazib chiqarish korxonalari, yo‘l va kopriklar, sovxozlar va shu kabilarni) barpo etishda faol ishtrok etishdi.³⁹

1974 yilga kelib Hindiston, Afg‘oniston, Iroq, Suriya, Eron kabi Osiyo mamlakatlarida O‘zbekistonlik 400 dan ortiq mutaxassis faoliyat olib borar edi. Shu davlatlarda o‘zbekistonliklar o‘zlarining bunyodkorlik mehnatlari bilan ob‘ektiv ravishda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini yuksaltirishga beg‘araz yordam ko‘rsatdilar.

Ta‘lim sohasida mutaxassis tayyorlash tajribasi bo‘yicha O‘zbekistonda XX asrning 80-yillarida Hindiston va boshqa Osiyo davlatlaridan 25 ta oliy o‘quv yurtida 3 mingdan ortiq talaba Toshkent, Samarqand, Farg‘ona kabi shaharlardagi oliy o‘quv yurtlarida tahsil olib ketishdi.⁴⁰ Sovet tuzumi yillarida ilmiy aloqalar singari madaniy- ma‘naviy sohalaridagi hamkorlik ham ziddiyatli xususiyatlarga ega bo‘ldi. Jamiyat faoliyatining keng tarqalgan shakllaridan biri dunyoning bir qator mamlakatlarida “sovet mamlakati kunlari” ning o‘tkazilishi bo‘ldi. O‘zbekistonning ishtiroki bilan SSSR ning madaniyat kunlari o‘nlab mamlakatlar qatori Hindistonda ham bir necha bor bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan madaniy hamkorligida adabiy aloqalarining toli ayniqsa sezilarli bo‘ldi. Bunga Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining konferensiyasi turtki bo‘ldi. Konferensiyada “Toshkent ruhi” deb atalgan do‘stlik, taraqqiyot, o‘zaro hamjihatlik va tinchlik tuhi qaror topdi. Konferensiyada Hindiston delegatsiyasi ham mamnuniyat bilan ishtrok etishgan edi.

O‘sha yillarida o‘zbek adabiyoti arboblariidan ayrimlari xorijiy davlatlarning yuksak mukofotlariga sazovor bo‘ldilar. Xususan, shoira Zulfiyaxonim Hindiston bilan SSSR o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash sohasidagi faol xizmatlari uchun Javaharlal Neru nomidagi Hindiston oliy

³⁹Ўзбекистон янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т. 2000., 605-бет.

⁴⁰Ўша китоб. Т. 2000., 607-бет.

mukofotiga sazovor bo'lgan edilar.⁴¹O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan madaniy aloqalarida san'at sohasidagi hamkorlik ham alohida o'rin tutgan.O'zbekistonlik kino aktyorlari bilan hindistonlik mashhur kino ustalari hamkorlikda bir necha fil'mlar yaratildi. Shuningdek, O'zbekistonlik teatr san'ati xodimlaridan xalq artistlari Zikir Muhammadjonov, Mukarrama Murg'unboyeva, Galiya Izmaylova, Yoqub Ahmedov, Bernara Qoriyeva, Saodat Qobulova, Muxtor Ashrafiya, Tamaraxonim kabilar Hindistonda bir necha bor gastrol safarida bo'lib o'z san'atlarini namoyon qilib kelishgan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, XX asrning 50-90-yillari mobaynida O'zbekistonning Hindiston Respublikasi bilan imliy va madaniy, iqtisodiy aloqalari ittifoq tasarrufida, uning mafkuraviy andozalari va ko'rsatmalari asosida amalga oshirilgan, lekin uning zaminida o'zbek halqining buyuk ajdodlari, uning ilg'or ziyolilari, mohir kasb egalarining ijodiy yutuqlari, namunalari yotar edi.

⁴¹Ўзбекистон янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т. 2000., 611-бет.

II 606. O'zbekiston va Hindiston davlatlari munosabatlarida tashqi siyosiy faoliyati asoslarining ishlab chiqilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yo'l qo'yilishi.

1. Ikki davlat o'rtasidagi har tomonlama o'zaro manfaatli munosabatlarning o'rnatilishi va mustahkamlanib borishi bosqichlari

O'zbekiston Respublikasi o'z siyosiy mustaqilligini e'lon qilar ekan, avvalo mamlakat manfaatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil tashqi siyosat asoslarini shakllantirib bordi. Jahon mamlakatlari bilan teng huquqli aloqalarni o'rnatishdan manfaatdorligi va bu borada Janubiy Osiyo mintaqasi davlatlari ham o'z o'rnida muhim ahamiyat kasb etishi e'tiborga loyiqdir. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekiston Respublikasida demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy jamiyat qurish va iqtisodiyotning keng tarmoqlariga ega bo'lgan sanoatlashgan-agrar davlat asoslarini barpo etish vazifalari turar edi. Shu asosda mamlakatda amalga oshirilayotgan ichki islohotlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov boshchiligidagi "o'zbek modeli" nomini olgan rivojlanish strategiyasi ishlab chiqildi. Bu borada "o'zbek modeli" nomi bilan ataluvchi O'zbekistonning ichki rivojlanish strategiyasi so'nggi yigirma yil ichida o'zining afzallik tomonlarini namoyish etib, jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholanishiga sabab bo'lsa ham so'zimizni isboti bo'la oladi.⁴²

Jahon mamlakatlarining tajribalariga asoslangan holda, har qanday davlatning yangilanishi va taraqqiyoti nafaqat ichki islohotlarning muvaffaqiyati amalga oshirilishiga, balki mamlakat tashqi siyosiy strategiyasining nechog'lik to'g'ri tanlagani, umumjahon jarayonlaridagi faol ishtiroki bilan uzviy bog'liqligini O'zbekiston rahbariyati to'g'ri anglab yetganligi diqqatga sazovordir. Yani mamlakat taraqqiyotining ichki strategiyasi, tashqi siyosat strategiyasi bilan bog'liqdir. Shu bois ham O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va

⁴²Қамариддин Усмонов. Ўзбекистон тарихи. Т.2010. "Илм зиё" Б-293

madaniy-ma'naviy jarayonlarini jadallashtirishda, mamlakatning tashqi siyosiy faoliyatining rivoshlantirishi muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida mamlakat tashqi siyosiy faoliyatini shakllantirish jarayonida ayrim qiyinchiliklarga duch kelindi, ular bevosita sobiq mustabid sovet tuzumining asoratlari bilan bog'liq edi. "O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish, ta'kidlangan edi Prezidenti I. A. Karimov, - davlat faoliyatining yangi va amalda qo'llanilmagan yo'nalishlaridan biridir. Yakka hokimlik tizimi sharoitida O'zbekiston xalqaro maydonga to'g'ridan-to'g'ri va ochiq chiqish imkoniyatidan maxrum etilgan bo'lib, o'zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, yetarlicha diplomatlariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi"⁴³

Shunga qaramay, mamlakat rahbariyati o'zbek halqi va uning davlatchilik tarixidan yangi sahifa ochilgan birinchi kundanoq O'zbekiston tashqi siyosatining asoslarini shakllantirishga jadal kirishdi. Natijada qisqa muddat ichida jahon tajribasi va umum e'tirof etgan standartlar asosida tashqi siyosat yuritadigan va xalqaroaloqalar bog'laydigan institutsion tizimlar shakllantirildi. Ayni vaqtda O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov boshchiligida mamlakat tashqi siyosatining milliy manfaatlariga mos keluvchi strategiyasi, prinsiplari va ustuvor yo'nalishlari ham ishlab chiqildi.

Shunday qilib, mamlakat tashqi siyosiy faoliyatining asoslarini ishlab chiqilishi natijasida, hamda mamlakatning real siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy darajasidan kelib chiqib, shuningdek, respublikaning rivojlantirishdagi o'tish davrida uning oldida turgan vazifalarni inobatga olib, dunyodagi yangi industrial rivoshlanayotgan davlatlar bilan yaqin aloqalar o'rnatishga alohida ahamiyat berildi. Hindiston Respublikasi to'la asos bilan ana shu davlatlar qatoriga kiradi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari muhim yo'nalishlardan biri bo'lgan Janubiy Osiyodagi industrial mamlakatlardan

⁴³Каримов И. А. Ўзбекистон миллий истиқилолиқтисод сиёсат мафкура. – Тошкент. Ўзбекистон. -1996.- Б. 50.

biri bo'lgan Hindiston Respublikasibilan hartomonlama o'zaro foydali munosabatlar va hamkorlik o'rnatish hamda uni rivojlantirish zarurligiga alohida urg'u berilmoqda. Bu shu bilan ham bog'liqki, ushbu mintaqada bir qator davlatlar joylashgan bo'lib, ularning hozirgi dunyodagi global muammolarga siyosiy qarashlar va nuqtai- nazarlari, shunigdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va xorijiy mamlakatlar investisiyalarini sanoatning fan yutuqlariga asoslangan tarmoqlariga jalb qilish borasida to'plangan tajribasi respublikamiz uchun katta qiziqish uyg'otdi.

Hindiston deganda har birimizning qalbimiz junbushga keladi.Go'zal diyor bilan bog'liq har bir narsa yuraklarni to'lqinlantirib yuboradi.Go'zal tabiatli, yorqin rangli ertakona hayotni baxshida etuvchi Hindiston maydoni jihatdan yirik mamlakatdir. Janubiy Osiyoda, Hind okeani xavzasida joylashgan ushbu davlat, hududi shimoldan janubga 3200 km, g'arbdan-sharqqa 2700 km.ga cho'zilgan. Shimolda Himolay tog'lari, G'arbda esa Arabiston dengizi, Sharqda Belgal qo'ltig'I bilan o'ralgan. Lakkadiv va Alindiv orollari, Bengaliya qo'ltig'idagi Andamon va Nikobor orollari ham kiradi.⁴⁴ Shimoli-g'arbda Pokiston va Afgpniston, shimolda Xitoy va Nepal, shimoli-sharqda Birma, shuningdek, Nutan bilan chegarasoh. Maydoni 3287,1 ming km² . Aholisi 1 mlrd.177 mln bo'lib, poytaxti Dehli shahridir.⁴⁵ Hindiston mamuriy jihatdan 35 ta shtat va ittifoq hududiy bo'linishlariga ega.

Davlat tuzumi jihatdan Hindiston federativ respublika (29 ta shtat va 6 ta ittifoqqa bo'linadi). Hamkorlik tarkibida amaldagi konstitutsiyasi 1950 yil 26 yanvarda qabul qilingan.Davlat hokimiyatining oliy organi-Parlament ikki palataga bo'linadi. Quyi palata (halq palatasi) va yuqori palata (shtatlar kenashi)dan iborat. Davlat boshlig'i Prezident, u ayni vaqtda oliy bosh qo'mondon hisoblanadi. Mamlakatda ko'plab siyosiy partiyalar faoliyat yuritadi. Ulardan asosiylari: Baharata Janata, Kongress partiyasi, kommunistlar partiyasi,

⁴⁴Гофуров А. Хиндистон. Т., 2010.– 9-бет

⁴⁵Индия- 2008. NEW. Delhi Undia. 2008.-С.18.

Desam, Samajvadi, Janata Dal birligi, Sena partiyasi, Baxugan Samaj, Kashagam, Milliy Kongress partiyalaridir.⁴⁶

Hindiston 1945- yil 30 oktabrdan BMT a'zosi. Aholining 70 % ni hind-oriylari tashkil etadi. Janubda tamil, telegu, konnada, molayali, kabi halqlar yashaydi va ular mamlakat aholisining 25 % ni tashkil etadi. Shimoliy-Sharqda Hindxitoy halqlariga yaqin aholi istiqomat qiladi. Hindiston yangi sanoatlashgan davlatlar qatoriga kiradi. Hindiston xilma-xil mineral resurslarga ega bo'lib ko'mir, temir, boksit, mis, neft qazib olinadi. Sanoatda mehnatga layoqatli aholining 20 % qishloq xo'jaligida esa 60 % band. Harbiy sanoat, qazilma boyliklarini qazib olish, energetika sohalari davlat sektoriga qarashli. Oziq-ovqat, tibbiyot, qurilish, savdo, qishloq xo'jaligida xususiy sarmoyaning ulushi katta. Mamlakat qishloq xo'jaligida bug'doy, guruch, makkajo'xori, kofe, choy va boshqalar yetishtiradi. Yalpi ichki mahsulot 477.368 mln AQSH dollarini tashkil etadi. Tashqi savdoda importning ulushi 53,8 mlrd. AQSH dollari bo'lib uning 27,4 % ini neft va neft mahsulotlari, 9 % ni oltin va kumush, 7,8 % ini elektrotexnika tovarlari, 7 % ini mashinalar, 5,4 % ini kimyoviy mahsulotlar, 2,7 % ini iste'mol yog'lari tashkil qiladi. Import bo'yicha savdo sheriklari Shveysariya, Xitoy, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Germaniya, AQSH, Singapur, Avstraliya. Tashqi savdoda eksportning ulushi 44,5 mlrd AQSH dollarini tashkil qiladi.⁴⁷ Hindiston azal-azaldan fan va texnologiya sohasida o'z an'alariga ega va XX asrda ko'zga ko'rinarli yutuqlarga erishganini bugun jahon aholi e'tirof etmoqda. Buyuk hind olimlari Xomi Bxabha va Vikrama Sarabxoining ulkan xizmatlari tufayli yadroviy fan va atomdan tinch maqsadlarda foydalanish bobida salmoqli yutuqlarga erishildi. Hindiston fazoviy tadqiqotlar, sun'iy yo'ldoshlar texnologiyasida foydalanish va yo'ldoshlarni samoga uchirish borasida yangi cho'qqilarni zabt etdi. So'ngi yillarda Hindiston iqtisod, qishloq xo'jaligi, fan va texnika, telekommunikatsiya, aviatsiya, ta'lim va mudofaa sohaslarida ulkan yutuqlarga erishmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida

⁴⁶ Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. Т., Академия. 2005. Б. 292-296.

⁴⁷ Уша жойда. Т., Академия. 2005. Б. 293

do'stlik, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan yuksak darajadagi hamkorlik aloqalari qaror topgan. Ikki mamlakat mintaqada xavfsizlik va barqarorlik masalasida mushtarak qarashlarga ega. Hindiston hukumati O'zbekiston rahbariyatini diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi olib borayotgan sobitqadam siyosatini qo'llab-quvvatlab, yuqori baholamoqda.

Janubiy Osiyo davlatlari ichida Hindiston, Xitoy, Pokiston, Eron kabi mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va rivojlanish sur'atlari kataligi bilan ajralib turadi. Ularning mustamlakachilik kishanlaridan halos bo'lgandan keyin siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar borasida to'plagan tajribasi yangi mustaqil mamlakatlar uchun juda soboqlidir. Shu sababli rivojlanishning o'tish davrida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi uchun Janubiy Osiyo mamlakatlaridagi iqtisodiy islohotlarning borishini kuzatish va ilmiy-taxminiy o'rganish juda muhimdir.

Globalashuv sharoitlarida siyosiy e'tiqodlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va kelgusi istiqbolga mo'ljallangan vazifalarni belgilash bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tajribasini o'rganishdek ehtiyoj borgan sari keskinroq tus oladi.

Ta'kidlash lozimki, bugun Markaziy va Janubiy Osiyo, geosiyosiy nuqtai-nazardan, shungdek ushbu muntaqadagi mamlakatlarning rivojlanishi tajribasining o'rganish nuqtai-nazardan, O'zbekiston Respublikasi uchun ulkan strategik qiziqish uyg'otadi. Bunday fikrlashimizga quyidagi asosiy sabablar asos bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, O'zbekiston hamda Janubiy Osiyo mamlakatlarining tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash masalalaridagi qarashlari o'xshash ekanligi. Jumladan, O'zbekiston Markaziy Osiyoda tutgan geosiyosiy o'rniga ko'ra Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) singari submintaqaviy siyosiy-iqtisodiy tashkilot doirasida faollik ko'rsatmoqda.⁴⁸ O'z o'rnida Hindiston ham endilikda ushbu tashkilotning faoliyatiga e'tibor qaratib kuzatuvchi davlat sifatida qatnashmoqda.

⁴⁸Шанхай Ҳамкорлик Тошкilotи (ШХТ)-2001 йил июнь ойида Россия, Читай, Қозоғистон, Ўзбекистон, Қирғизистон, Тожикисто иштрокида ташкил этилган.

Maqsadlarning mushtarakligi shundaki, tashkilot tarkibida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, xalqaro terrorizm va diniy ekstrimizga qarshi birgalikda kurashish, shunigdek Afg'oniston, Pokiston kabi notinchliklar yuz berayotgan davlatlar ikki davlatning iqtisodiy-siyosiy aloqalariga rahna solayotganiga, ushbu davlatlardagi mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilinishida, bir maqsadlarni o'rta qo'yayotganligi e'tiborga loyiqdir.

Ikkinchidan, bozor islohatlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar qilayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari to'plagan tajriba, ularning taraqqiyot yo'lida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish borasida hamkorlik shakllari juda qadrlidir.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi va Hindiston o'rtasida madaniy va diniy masalalarda ko'plab umumiy jihatlar mavjud. Bu avvalo ularda qadimiy madaniy-ma'naviy an'analar mushtarakligi, umuminsoniy manfaatlarga gumanistik qarashlari va aksariyat aholi orasida musulmon Boburiylar avlodlarini tashkil qilish bilan bo'g'liqdir.

Hindiston mamlakatimiz mustaqilligini birinchilar qatori tan olganini alohida takidlash lozim. O'zbekiston mustaqilligi arafasida 1991 yil 17-19 avgust kunlari O'zbekiston hukumatining rahbari I. A. Karimov Hindiston safarida bo'lib, mamlakat bilan SSSR davlatlari ichida birinchi bo'lib mustaqil o'zaro siyosiy-iqtisodiy aloqalar to'g'risida bir qancha shartnomalar tuzib kelishga erishgan edi. O'zbekiston- Hindiston o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik munosabatlari O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, yangi munosabatlar bosqichiga ko'tarildi. Hindiston O'zbekistonning mustaqilligini tan olib Toshkentda 1992 yil 18 mart kuni diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risidagi pratakol imzolandi.⁴⁹Shundan beri ikki mamlakat o'rtasidadagi hamkorlik ko'lami va qamrovi yildan-yilga tabora kengayib, jadallik kasb etmoqda. Hindiston bilan hamkorlikning rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir. Mamlakatimiz Hindiston bilan oliy

⁴⁹Гофуров А. Хиндистон. Т., 2010.– Б. 110-бет

darajada tashqi siyosiy maxkamalari o'rtasida delagatsiyalar orqali muntazam siyosiy muloqot olib bormoqda.

O'zbekistonning yirik mamlakat- Hindiston bilan aloqalari kengayib bormoqda. 1993 yil 23-25 may kunlari Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Safar kunlarida "O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida" shartnoma, foyda va mulk ikki yoqlama soliq solmaslik to'g'risida, havo yo'llari tog'risida va savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning 1993 yil 17-19 avgust kunlari Hindistonga rasmiy tashrifi chog'ida ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy, savdo va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika. Turizm, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish kengayib bormoqda. 1995 yil 25 avgust kuni Toshkent shahrida Hindistonning "TATA Projekte LTD" firmasi tomonidan qurib bitkazilgan 600 o'rinli salomatlik zali, majlislar xonasi, servis xizmati, yer osti garaji, sauna, barlar, katta restoranlar bo'lgan zamonaviy mehmonxonaning ochilishi fikrimizning dalilidir.⁵⁰

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarni Islom Karimovning 2000 yil 1-3 may kunlari Hindistonga qilgan safari yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. Safar paytida O'zbekiston Prezidenti Hindiston prezidenti va Bosh vaziri bilan muzokaralar olib borib, uning yakunida 10 ga yaqin hujjatlar imzolandi. Ular orasida xalqaro jinoyatchilik, terrorchilik, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashga qaratilgan O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida hamkorlik to'grisida Qo'shma bayonet jinoyat qidiruv ishlarida huquqiy yordam va ekstraditsiya to'grisidagi shartnoma muhim ahamiyatga ega. Shuningdek iqtisodiy, madaniy, ta'lim, axborot, bojxona sohalari bo'yicha hamkorlik qilish haqida hujjatlar imzonadi. O'zbekiston va Hindiston o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarga xizmat qiluvchi 40 ga yaqin

⁵⁰Қамариддин Усмонов. Ўзбекистон тарихи. Т.2010. "Илм зиё" Б-293

hujjatlar qabul qilingan. O'zbekistonda 2000 yilda Hindiston bilan hamkorlikda tashkil etilgan 30 ga yaqin qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidamunosabatlar huquqiy asoslari turli sohalaridagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni hamda hamkorlikni tartibga solib turuvchi davlar, hukumat, muassasalar va idoralararo hujjatlar tashkil qiladi. 2009 yilgacha ikki davlat o'rtasida 60 dan otiq rasmiy hujjatlar imzolandi. 1992 yil Toshkentda Hindistonning bosh konsulxonasi (1998 yilda Davlat elchixonasi) 1992 yil Dehlida O'zbekiston Respublikasi konsulxonasi (1994 yil esa elchixonasi) faoliyat boshlagan.⁵¹ Dehlidagi O'zbekiston elchixonasiga maxsus yer maydon ajratilib, ma'muriy bin ova elchixona xodimlari yashaydigan xonadon ajratildi. 2010 yilga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov 4 marta (1991, 1994 , 2000, 2005 yillar) rasmiy tashrif bilan Hindistonda bo'ldi. 1993 yilda rasmiy tashrif bilan Hindiston bosh vaziri Narasimxo Ra va 2006 yilning aprelida esa Hindistonning yangi bosh vaziri Manmahon Singx O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi. Ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar ikki tomonlama shartnomaviy-huquqiy asoslarni tashkil qilgan qator iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bitim va hujjatlar imzolangan.

Davlatimiz rahbarining 2005 yil aprel oyida Hindistonga amalga oshirgan davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlik rivojidadagi g'oyat muhim voqea bo'ldi. Uchrashuv chog'ida tomonlar mamlakatimiz o'rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib borayotganini ta'kidlashdi. Bu hamkorlik davlatlarimizning uzoq istiqboldagi milliy manfaatlariga mos bo'lib, o'zaro aloqalarning yanada mustahkamlanishishiga, hammintaqa, hamjahon iqyosida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Xalqaro transafg'on transport yo'lagini barpo etishga oid loyihani hayotga tezroq tatbiq etish mumkinligi qayd etildi. O'sha 2005 yilga nisbatan Hindiston salohiyatiga alohida e'tibor qaratilsa quyidagi ma'lumotlarga esa bo'lish mumkin. Mamlakat sanoat ishlab chiqarish, jalb qilinayotgan xorij sarmoyasi hajmi jihatdan dunyodagi dastlabki o'nlikka

⁵¹Гофуров А. Хиндистон. Т., 2010. Б.110-бет

kirgan. Yadroviy texnologiyalar va koinotni zabt etish borasida ham eng ilg'or mamlakatlar safida turadi. Jahonda axborot texnologiyalari yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yarmidan ortig'I Hindistonning hissasiga to'g'ri kelmoqda.⁵²

Dunyodagi eng ko'p sug'oriladigan ekin maydoniga ega Hindiston qishloq xo'jaligi sohasidagi ko'p asrlik an'analari, zamonaviy irrigatsiya texnologiyalarining ishga solinishi tufayli bir milliarddan ziyod aholining ehtiyojini qondiribgina qolmay, katta miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilib kelmoqda. Qulay sarmoyaviy muhit va ulkan bozor dunyoning dongdor korporatsiyalarining bu mamlakatga qiziqishini tobora oshirmoqda. Birgina avtomobilsozlik sohasini olsak, Ford, Suzuki, Hyundai kabi ko'plab mashhur kompaniyalar o'z mahsulotini Hindistonda ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'ygan.

So'nggi yillarda yalpi ichki mahsulotda xususiy sektorning ulushi 75 % dan oshgani, o'rtahol aholini soni ko'payotgani (hozir 400 milliondan ziyod) mamlakat iqtisodiyoti zamonaviy bozor talablari asosida rivojlanayotganidan o'sish sur'ati borasida Hindiston dunyodagi eng yuqori pog'onalardan birida turadi.

Prezident I. A. Karimovning 2005 yil 4-5 aprel kunlari Hindistonga davlat tashrifi bilan borgandagi ba'zi faktlarga to'xtalib o'tib xulosa chiqarsak. O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov Hindiston Prezidenti Abdul Qalam va Bosh vazir Manmahan Singx bilan uchrashuvlarida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha atroflicha fikr amlashilgan.⁵³

Muzokaralarning amaliy natijasi tashrif davomida imzolangan 13 ta hujjatda o'z ifodasini topdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, ta'lim va madaniyat sohalarida hamkorlik bo'yicha hukumatlararo hujjatlar imzolangan. Mudofaa vazirliklari o'rtasida harbiy va harbiy texnikaviy hamkorlik tog'risidagi bitim, O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi bilan Hindiston savdo

⁵²Халқ сўзи газетаси. 2005 йил апрел сони.

⁵³ Лафасов. М. Жахон тарихи. Т. "Турон-Иқбол". 2011 й. Б-246

korparatsiyasi o'rtasidagi anglashuv memorandum, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi bilan Hindiston sayyohlikni rivojlantirish korparatsiyasi o'rtasidagi anglashuv protokoli, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan Hindiston savdo-sanoat palatalari federatsiyasi hamda Hindiston eksporti tashkilotlari federatsiyasi o'rtasida hamkorlik to'grisida bitimlar, O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat banki hamda Hindiston eksport-import banki o'rtasida hamkorlik memorandumlari, "O'zsanoatmashimpekts" davlat aksiyanerlik tashqi savdo kompaniyasi bilan Hindistonning "Kompetent" kompaniyalari guruhi o'rtasida Savdo uyi tashkil etish to'g'risida memorandum, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan Javoharlal Neru universiteti hamda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti bilan Mirzo G'olib instituti o'rtasida anglashuv memorandumlari imzolangan edi.

Tashrif chog'ida iqtisodiy sohaga oid 7 ta hujjat imzolanganligi uning nechog'li samarador bo'lganini va qanday ulkan ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. 2005 yilga qadar Hindiston bilan O'zbekiston o'rtasidagi savdo hajmi 160 million AQSH dollarini tashkil qilgan, O'zbekiston-Hindiston sarmoyasi ishtrokida tuzilgan qirqqa yaqin qo'shma korxona hamda Hindistondagi 4 kompaniyaning vakolatxonalari faoliyati davom etmoqda.⁵⁴ Hozirgi kunda mamlakatimiz Hindistonga asosan rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlarni, ayrim xizmat turlarini, poliz mahsulotlarini, ipak va kimyoviy tolalarni eksport qilib qolmoqda. Import esa qog'oz va karton, dori-darmon, uskuna, organik va kimyoviy birikmalar kabi mahsulotlardan iborat.⁵⁵

Shuningdek, Hindiston Bosh vaziri Manmahon Singxning 2006 yilda Toshkentga tashrifiga ham to'xtalib o'tish zarur. Ushbu tashrif chog'ida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va hamkorlikning boshqa sohalarida ikki tomonlama aloqalarni yanada rivojlantirish masalalari shuningdek, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammolar yuzasidan fikrlar almashtirilgan. O'sha tashrif

⁵⁴Халқ сўзи газетаси. 2005 йил апрел сони.

⁵⁵ Гулистон журнали. 1994 й. № 1 Б-58

chog'ida shungdek, jahonda yuz berayotgan o'zgarishlardan kelib chiqib, BMT tizimini va faoliyatini isloh qilish, bugungi kundagi xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurash samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010 yil 11 iyun kuni Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) ning Toshkent sammitida kuzatuvchi davlat sifatida ishtrok etgan Hindiston tashqi ishlar vaziri Satanhalli Malaia Krishnani qabul qildi. Tomonlar qayd etganidek, O'zbekiston va Hindistonoliy darajada yaqin va konstruktiv aloqalar yo'lga qo'yilgan, tashqi siyosat mahkamalari o'rtasida muntazam ravishda maslaxatlashuvlar o'tkazilardi, har ikki davlatlar xalqaro maydonda bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida hamkorlikni mustahkamlashga intiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston va Hindiston mintaqaviy va global xavfsizlikni taminlashga oid masalalarga yondashuvi o'xshash va yaqin ekani, tomonlar bu yo'nalishda sayi- harakatlarni o'zaro muvofiqlashtirib borayotganini qayd etish lozim. O'zbekiston rasmiy Dehlining prinsipial va tinchlikparvar siyosatini qo'llab-quvvatlaydi, Hindistonni BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari qatoriga kiritishini izchil yoqlab kelmoqda.

O'zbekiston Hindistonning Shanxay Hamkorlik Tashkilotida kuzatuvchi davlat sifatidagi ishtrokini Tashkilotning geosiyosiy ahamiyatini oshirish va uning mintaqaviy va global jarayonlarga ta'sir ko'rsatish borasidagi imkoniyatlarini kengaytirishning muhim omili, deb hisoblaydi.

O'zbekiston va Hindiston o'rtasida ikki tomonlama munosabatlarning mustahkam normative- huquqiy bazasi yaratilgan. O'zaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan 73 davlatlararo, hukumatlararo, idoralararo hujjatlar imzolangan.⁵⁶ Jumladan, ikki tomonlama munosabatlar 1992 yilda tashkil etilgan. Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Hindiston hukumatlararo komissiyasi doirasida tartibga solindi. 1993-2011 yillarda ushbu Komissiya 9 marotaba majlis o'tkazdi. Komissiyaning 2011 yil 4 may kuni Toshkentda bo'lib o'tgan so'ngi majlisda tomonlar siyosiy muloqotlarni

⁵⁶ "Ziyo.NET. UZ." Portal. "Ўзбекистон ва Ҳиндистон бугунги кунда" номли мақоладан.

faollashtirish va iqtisodiy aloqalarni, jumladan , kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, konchilik, mashinasozlik, to'qimachilik sanoati, sog'liqni saqlash, fan, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda hamkorlikni kengaytirish bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazish mumkinligini qayd etdilar.⁵⁷

Hindiston hozirgi kunda jahodagi jadal rivojlanayotgan mamlakatlardandir. Ushbu davlatlarning tez sur'atlarda o'sib borayotgan iqtisodiyoti buning dalilidir. Hindistonda kuchli industrial baza yaratilgan va katta ilmiy-texnikaviy salohiyat mavjud. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, tibbiyot, formatseftika, yengil sanoat kabi yo'nalishlardan ulkan yutuqlarga erishilmoqda. Shunday qilib, tadqiqot materiallari hozirda O'zbekiston va Hindiston davlatlari o'rtasidagi aloqalarda ham global, ham mintaqaviy manfaatlarda ko'plab umumiy nuqtalar mavjud, degan xulosa chiqarishimizga asos bo'ladi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi va Janubiy Osiyodagi ayrim mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lida ikki davlat to'plagan tajribani o'rganishga o'zaro qiziqishning mavjudligi va hartomonlama hamkorlikka ehtiyojning borligi bugungi kunimizning ob'ektiv voqeligidir.

⁵⁷“Ziyo.NET. UZ.” Portal. “Ўзбекистон ва Ҳиндистон бугунги кунда” номли мақоладан.

2. O'zbekiston-Hindiston davlatlarning hozirgi kundagi globallashuv sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi munosabatlarning istiqbollari.

Ushbu paragrafda O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari shakllanishi iqtisodiy sohadagi aloqalarning holatini tahlil qilamiz va xulosalar beramiz. Takidlash joizki, jahon hamjamiyatining to'la huquqli a'zosi sifatida O'zbekiston Respublikasi mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarida ishlab chiqilgan o'z tashqi siyosiy strategiyasi va undagi asosiy ustuvor yo'nalishlarini hayotga tadbqiq etishga kirishdi. Bu borada respublikamizning Janubiy Osiyo mamlakatlari, jumladan Hindiston Respublikasi bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari o'rnatilgani alohida diqqatga sazovordir.

O'zbekiston Respublikasi Hindistonning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi xususiyatlarini ko'rib yoki e'tiborga olib, bu davlat bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni an'anaviyligini tiklab, rivojlantirishga kirishdi. Buning bir qancha ob'ektiv sabablari mavjud;

Birinchidan, Hindiston va O'zbekiston mustaqillikka erishgan hamda o'z taraqqiyoti yo'lini tanlab olgan sobiq mustamlaka mamlakatlardir. Shu bois Hindistonning yarim asrdan ortiq mustaqil taraqqiyoti davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarda olib borilgan islohotlar va bu borada to'plangan tajriba yangi mustaqil davlatlar, jumladan O'zbekistonda katta qiziqish uyg'rti.

Ikkinchidan, hozirgi kunda xalqaro mamlakatlarning yechimini topish jarayonida ikki mamlakat qarashlarining o'zaro o'xshashligi O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarning rivojlanishiga muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, Hindistonda ko'plab musulmonlar, shuningek, bizning avlodlar yashaydigan mamlakatdir. Dinni niqob qilib olgan diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi kuchayib borayotgan hozirgi taxlikali zamonda bu aloqalarni xavfi kuchayib borayotgan taxlikali zamonda bu aloqalarni rivojlantirish favqulotda katta ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, Hindiston ilg'or texnologiyalarga asoslangan keng tarmoqli sanoat infratuzilmasi hamda iqtisodiy taraqqiyot yo'lida erishgan yutuqlari rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, Hindiston halqining hozirga qadar saqlanib qolgan qadimiy madaniy-tarixiy an'analari uning umuminsoniy qadriyatlariga sodiq ekanidan dalolat beradi. Hindiston halqiga xos bunday fazilatlar bilan uzoq asrlik tarix va madaniyatga ega bo'lgan o'zbek halqining urf-odat va an'analari o'rtasida yaqinlik, umumiylik mavjudligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Ikkala davlat halqlari o'rtasidagi ma'naviy yaqinlik va o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan O'zbekiston rahbariyati Hindiston bilan madaniyat, ilm-fan, ta'lim, turizm va boshqa gumanitar sohalardagi hamkorlikning rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan besh omillar O'zbekistonning Janubiy Osiyodagi yetakchi davlatlardan biri bo'lmish Hindiston bilan o'zaro manfaatli va teng huquqli aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor ekanligidan dalolat beradi.

O'z navbatida yosh mustaqil O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosiy strategiyasiga xos xususiyatlar Hindiston davlatida mamlakatimiz bilan hamkorlik aloqalari o'rnatishda katta qiziqish uyg'otdi. Shuning uchun ham Hindiston O'zbekiston mustaqilligini dastlabki kunlaridayoq tan olganligi, o'zaro munosabatlarga katta e'tibor qaratganligi diqqatga sazovordir.

Jahon tajribalaridan ma'lumki, mamlakatlar o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish davlat rahbarlarining rasmiy uchrashuvlari va bu jarayonda imzolangan shartnomalarni hoyatda muhimdir. Shu asosda O'zbekiston va Hindiston davlat rahbarlarining bir qancha uchrashuvlari bunga misol bo'la oladi. O'zaro munosabatlarda iqtisodiy yo'nalishdagi, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, neft-gaz, mashinasozlik, to'qimachilik kabi sohalardagi hamkorlikni kengaytirish ustuvor yo'nalishlardandir. O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik, sarmoyalarni himoyalash va rag'batlantirish, ikki tomonlama soliqdan qochishga oid bitimlar amal qiladi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning 2005-yili Hindistonga davlat tashrifi doirasida boshqa hujjatlar qatorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitim imzolandi. Joriy yilda yana bir muhim hujjat – O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan Hindiston savdo-sanoat palatalari uyushmasi o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. O'zbekiston Hindistonga xizmatlar, paxta va ko'ncilik xomashyosi, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, rangli metallar eksport qiladi. Hindistondan O'zbekistonga farmatsevtika mahsulotlari, mexanik va elektron uskunalar, optik asboblari, oziq-ovqat mahsulotlari, plastmassa va plastmassadan tayyorlangan mahsulotlar import qilinadi. O'zaro savdoda eng ko'p qulaylik yaratish tartibi joriy qilingan. 2010-yilda mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 150 million dollarni tashkil qildi.⁵⁸ Mamlakatimizda hind sarmoyadorlari ishtirokida tuzilgan 62 qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur mamlakatning 18 firma va kompaniyasi yurtimizda o'z vakolatxonasini ochgan. Ular asosan to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, sayyohlik, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo va xizmat ko'rsatish kabi sohalarga ixtisoslashgan.⁵⁹

Mamlakatlarimiz o'rtasida texnikaviy-iqtisodiy sohadagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Hindiston texnikaviy-iqtisodiy hamkorlik dasturi (ITEC) doirasida o'zbekistonlik mutaxassislar axborot texnologiyalari, suv resurslarini boshqarish, bank ishi, menejment, mehmonxona biznesi kabi sohalarda Hindistonning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida tuzilgan Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya barcha sohalarda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2010 yilning 2-martida poytaxtimizda o'tkazilgan O'zbekiston va Hindiston ishbilarmon doiralarining biznes-forumida ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni yanada rivojlantirishga, Hindiston

⁵⁸ www. "Ziyo.NET. UZ.". Ўзбекистон ва Ҳиндистон бугунги кунда.

⁵⁹ Ўша сайтдан

kompaniyalarini mamlakatimizdagi xususiylashtirish jarayoniga keng jalb etishga, “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasida qator qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga oid masalalar atroflicha muhokama qilindi. Muntazam o‘tkaziladigan bunday forumlar o‘zaro savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.⁶⁰

Ikki mamlakat o‘rtasida yoqilg‘i-energetika, konchilik, geologiya, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kabi sohalaridagi hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida ko‘plab forum va seminarlar, ko‘rgazma va yarmarkalar, taqdimotlar o‘tkazilmoqda. O‘tgan yilning mart oyida Toshkentda o‘tgan Hindiston Respublikasining halq iste‘moli mahsulotlari “India Exhibition – 2010” ko‘rgazmasi samarali bo‘ldi.⁶¹

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar berayotgan yuksak samaralar, yurtimiz siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga oid muhim yangiliklar Hindiston ommaviy axborot vositalari tomonidan muntazam yoritib boriladi. Xususan, Hindiston-MDH Savdo-sanoat palatasi jurnalida 2010-yilning may oyida poytaxtimizda o‘tkazilgan Osiyo taraqqiyot banki (OTB) Boshqaruvchilar kengashining 43-yillik majlisi keng yoritildi.⁶² O‘zbekiston-Hindiston munosabatlari, mamlakatimizda xorijiy ishbilarmonlar uchun yaratilgan qulay sarmoyaviy muhit, sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan keng qamrovli ishlar, Hindistonning Gurgaon shahrida ochilgan O‘zbekistonga sayohat bo‘yicha axborot markazi, Toshkentda o‘tgan Hindiston milliy ko‘rgazmasi kabi tadbirlarga bag‘ishlangan materiallar e‘lon qilingan. Jurnalning 2010-yil iyun oyidagi sonida Hindiston-MDH Savdo-sanoat palatasi prezidenti Rajan Madxu boy tabiiy resurslarga, qulay sarmoyaviy muhitga ega O‘zbekiston muvaffaqiyatli biznes yuritish uchun eng qulay mamlakat ekanini qayd etib, O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi tarixiy munosabatlar ikki mamlakat ishbilarmonlari hamkorligini rivojlantirishda muhim omil bo‘lishini alohida ta’kidlagan. Prezidentimiz Islom Karimovning Hindistonga navbatdagi davlat

⁶⁰ Қиличбек Кенжа. Ҳинд сориға. Т. “Шарқ”. 2000 й.

⁶¹ www “Ziyo.Net. Uz”. “Давлатлар ўртасидаги ҳамкорлик”

⁶² Ўша сайт.

tashrifi mamlakatlarimiz o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni yanada yangi, yuqori pog'onaga ko'tarishga xizmat qiladi.

O'zbek va hind halqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari uzoq tarixga ega. O'zbekiston ham, Hindiston ham qadim sivilizatsiya beshiklaridandir. Buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy XI asrda ushbu diyorda bo'lgan, o'zining mashhur "Hindiston" asarini bu sehrli mamlakatga bag'ishlagan. Unda hind diyorining tabiati, tarixi, halqining hayot tarzi, falsafiy-diniy dunyoqarashlari haqida hikoya qilingan. Buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur esa XVI asrda "Boburnoma" kitobi bilan butun dunyo uchun Hindistonni yangidan kashf qildi, hind halqini esa Vatanimizning go'zalligi, ko'rk-tarovati bilan tanishtirdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar yangi mazmun bilan boyidi, hamkorlik izchil taraqqiyot yo'liga tushdi.

Hindiston jahondagi jadal rivojlanayotgan mamlakatlardan. Ushbu davlatning tez sur'atda o'sib borayotgan iqtisodiyoti buning dalilidir. Hindistonda kuchli industrial baza yaratilgan va katta ilmiy-texnikaviy salohiyat mavjud. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, tibbiyot, farmatsevtika, yengil sanoat kabi yo'nalishlarda ulkan yutuqlarga erishilmoqda.⁶³

O'zbekiston va Hindiston o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik izchil taraqqiy etmoqda. Ikki mamlakat o'rtasida 2010-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 150 million dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davridagidan 41,2 million dollarga ortdi.⁶⁴

Mamlakatlarimiz o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik, sarmoyalarni himoya qilish va rag'batlantirish, ikki tomonlama soliqqa tortishdan qochishga oid bitimlar imzolangan. Savdo va iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitimga muvofiq, o'zaro savdoda eng ko'p qulayik yaratish tartibi amal qilmoqda. Hindistondan mamlakatimizga asosan farmatsevtika mahsulotlari, organik kimyoviy birikmalar, mexanik uskunalar, qog'oz va karton, oziq-ovqat

⁶³ Ўзбекистонда ижтимоий фан. 2005 йил № 1-2 б 60-65 бет.

⁶⁴ www. "ziyo. net.uz." Ўзбекистон ва Ҳиндистон юугунги кунда.

mahsulotlari, optik priborlar, terini oshlash hamda bo‘yoq ekstraktlari va boshqa mahsulotlar import qilinadi.

Hindiston kompaniyalari mamlakatimiz iqtisodiyotiga katta qiziqish bilan qaraydi. Hindistonlik tadbirkorlar avtomobilsozlik, to‘qimachilik va sayyohlik kabi sohalarga faol sarmoya kiritishga qiziqish bildirayotgani buning yorqin dalilidir. O‘zbekistonning Davlat investitsiya dasturiga muvofiq, 2007-2010 – yillarda 4 loyihaga Hindistondan 33,5 million dollar miqdorida sarmoya jalb etildi. Hozir yurtimiz to‘qimachilik tarmog‘ida Hindistonning «Spentex Industries» kompaniyasining to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyasi ishtirokida umumiy qiymati 143,78 million dollarlik ikkita loyiha amalga oshirilmoqda.⁶⁵

O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi aloqalar mustaqillikdan oldin ham ancha rivojlangan edi. O‘zbekiston mustaqilligidan keyin bu aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishida O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mustaqillik arafasidagi Hindistonga tashrifi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Sho‘rolar zamonidagi mavjud tamoyillarni buzib, Hindiston bilan mustaqil hamkorlikni kengaytirishga birinchi bo‘lib kirishdi. Natijada Hindiston bilan O‘zbekiston o‘rtasida birinchi marta teng huquqli mamlakatlar kabi iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy, madaniyat, sog‘liqni saqlash, fan, texnika, turizm, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risida bitimlar tuzilgan. Hindiston yordami bilan Toshkent, Buxoro va Samarqandda zamoniaviy mehmonxonalar qurildi. Respublikamizga uskunalar va boshqa xil tovarlar harid qilish uchun 1993 yilda Hindiston 10 mln dollar mablag‘ ajratdi. 1993 yil may oyida Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi.⁶⁶ Oziq-ovqat, yengil sanoat, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish, havo yo‘llarini ochish, yangi zamonaviy mehmonxonalar qurish bilan shugullanuvchi hind-o‘zbek qo‘shma korxonalari ochish haqida 10 ta bitim tuzildi. Undan tashqari hind firmalari respublikamizdagi sheriklari bilan jami 100 mln dollarlik mahsulot berish bo‘yicha 15 ta savdo shartnomasiga imzo

⁶⁵www. "ziyo. net.uz." Ўзбекистон ва Ҳиндистон югунги кунда.

⁶⁶Лафасов.М Жаҳон тарихи. Тошкент. 2011 й.

chekishdi. O'zbekistonda dori-darmon ishlab chiqarishda hindlar katta yordam ko'rsatmoqda. Buning uchun Surxandaryoda maxsus qo'shma korxona tashkil etildi. O'zbekiston FAning yigirmadan ortiq ilmiy-tadqiqot instituti Hindistondagi sheriklari bilan hamkorlik qilmoqda. "O'zbek sanoat" davlat assotsiatsiyasi Hindistonning "Xabar grup" firmasi tamonida yiliga 4000 tonna ip-kalava ishlab chiqaradigan korxona qurildi. Hindistonning "Modi", "Rotan", "Shri eskport" va boshqa firmalari O'zbekistonda katta obro' qozondi.

2005 yil aprel oyida Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Hindistonda bo'ldi. 2004 yilda Hindiston bilan O'zbekiston o'rtasida tovar ayriboshlash 150 mln dollarga yetdi. 1993 yildan beri 800 ga yaqin o'zbek mutaxassislari axborot texnologiyalari, bank ishi, kichik biznes yo'nalishlari bo'yicha Hindistonda ta'lim olishdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun 45 ta shartnoma imzolangan. Shunday qilib, Hindiston-hozirgi kunda metall quyish, to'qimachilik, mashinasozlik, tog'-kon ishlari, neftni qayta ishlash, elektronika, kimyo sanoati tez rivojlanayotgan mamlakat. U 2004 yilda 12,5 mlrd dollarlik axborot texnologiyalarini xorijga eksport qildi.

Yalpi ichki mahsulotlarning 30 % qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Hindiston g'alla bilan o'zini o'zi to'la ta'minlaydi. Sholi yetishtirishda dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Turli texnik ekinlarni katta miqdorda yetishtiradi. Lekin mamlakat janubida millionlab odamlar qashshoqlikda yashaydi. Eng muhim muammo infilatsiyaning kuchayishi va tashqi qarzning o'shishi qilib belgilanmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda Hindistonning ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan va farmatsevtika mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanayotgan 18 kompaniya va tashkilotlari vakolatxonalari ro'yxatga olingan. Hozir mamlakatimizda Hindiston kapitali ishtirokidagi 62 korxona faoliyat ko'rsatmoqda, ularning 11 tasi to'liq hindistonlik sarmoyadorlar tomonidan shakllantirilgan.⁶⁷

⁶⁷Лафасов.М. Жаҳон тарихи. Т. 2011 й. 248 бет.

Hindiston sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar asosan halq iste'moli mollari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va teri mahsulotlarini qayta ishlash, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, farmatsevtika, qurilish, sayyohlik, ulgurji va chakana savdo yo'nalishlarida ish olib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kabi sohalaridagi aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida ko'plab forum va ko'rgazmalar o'tkazilmoqda. Toshkent shahrida 2008-yilning iyulida o'tkazilgan «Hindiston mini-texnologiyalari kichik biznes uchun – India minitech-2008» ko'rgazmasi samarali bo'ldi.⁶⁸ Ikki tomonlama munosabatlar 1992-yilda tashkil etilgan Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Hindiston hukumatlararo komissiyasi doirasida tartibga solinadi. 1993-2011–yillarda ushbu Komissiya to'qqiz marta majlis o'tkazdi. Komissiyaning 2011-yil 4-may kuni Toshkentda bo'lib o'tgan so'nggi majlisida tomonlar o'zlarini qiziqtirgan iqtisodiy masalalar yuzasidan ko'plab shartnomalarni imzoladilar. Mamlakatlarimiz ta'lim sohasini takomillashtirish, sog'liqni saqlash, inson resurslarini rivojlantirish sohalarida hamkorlik qilish bo'yicha boy tajribaga ega. Hindistonning Texnik-iqtisodiy yordam (ITEC) dasturi doirasida ko'plab o'zbekistonlik mutaxassislar ushbu mamlakatning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari, suv resurslarini boshqarish, bank ishi, mehmonxona biznesi kabi yo'nalishlar bo'yicha o'z malakasini oshirdi. 2010-yilda Hindiston hukumati O'zbekiston sog'liqni saqlash muassasalariga tibbiy uskunalar sotib olish uchun 1 million dollar hajmda grant ajratdi. Har yili Hindiston Tashqi ishlar vazirligining tuzilmaviy bo'linmasi hisoblangan Hind madaniy aloqalar kengashi (ICCR) dasturi doirasida turli mutaxassisliklar bo'yicha o'qish va malaka oshirish uchun talabalar jo'natiladi. 1991-yilda o'z faoliyatini boshlagan “O'zbekiston-Hindiston” do'stlik jamiyati madaniy aloqalarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.⁶⁹

Toshkentda 2006-yilning aprel oyida Javoharlar'1 Neru nomidagi O'zbekiston-Hindiston axborot texnologiyalari markazi ochildi. Dehli shahrida

⁶⁸Халқ сўзи газетаси. 2010 йил 20 май сони.

⁶⁹Халқ сўзи газетаси. 2000 йил 29 апрел сони.

2011-yilning yanvar oyida axborot texnologiyalari bo'yicha O'zbekiston-Hindiston qo'shma ishchi guruhining birinchi majlisi bo'lib o'tdi.⁷⁰

Toshkent davlat sharqshunoslik institutida o'tgan asrning 40-yillaridan boshlab hind tili o'qitib kelinmoqda, shuningdek, uchta maktabda hind tili o'qitilmoqda. Dehlidagi Jamiya Milliya universitetida o'zbek tili kurslari mavjud. Mamlakatlarimiz madaniyat namoyandalari turli tadbirlar, amaliy va tasviriyy san'at asarlari ko'rgazmalari, kinoanjumanlar va festivallarda doimiy ravishda ishtirok etib kelmoqda. Sport sohasidagi aloqalar ham sezilarli darajada faollashmoqda. Hindiston Milliy kurash assotsiatsiyasi samarali ish olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Hindiston Respublikasiga navbatdagi davlat tashrifi chog'ida O'zbekiston-Hindiston hamkorligining yangi va istiqbolli yo'nalishlari muhokama qilinadi, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb muammolar yuzasidan fikr almashiladi.

Muzokaralar yakunida turli sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan qator ikki tomonlama hujjatlar imzolanishi rejalashtirilmoqda.

Hozirgi bosqichda har ikki tomonda ham yanada samarali va har tomonlama hamkorlik, ikki do'st halq aloqalarini mustahkamlash uchun imkoniyatlar mavjud. Davlatimiz rahbarining Hindistonga yaqinda bo'ladigan tashrifi mamlakatlarimizning o'zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirishda yangi ufqlar ochishiga shubha yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Hindiston Respublikasi Prezidenti Pratibha Patilning taklifiga binoan 2011-yil 17-18 – may kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ladi. Tashrif chog'ida O'zbekiston-Hindiston hamkorligini kengaytirish va rivojlantirish masalalari, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb muammolar muhokama qilinadi.⁷¹

⁷⁰ www. "ziyo.net.uz" . Азалий дўстлик ҳақида.

⁷¹ Халқ сўзи газетаси. 2010 йил 20 май сони.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning davlat tashrifi asnosida imzolangan iqtisodiy sohaga oid hujjatlarining umumiy qiymati 2,2 milliard AQSH dollaridan oshadi.⁷² Ushbu tashrifdan xulosa shuki, O'zbekiston hukumati rahbari I. Karimovning Hindistonga borgan tashrifi yakunlari, o'tkazilgan muzokaralar va imzolangan hujjatlar o'zaro munosabatlarning hamkorlikning barcha yo'nalishlarida uzoq muddatga mo'ljallangan strategik sheriklik tamoyillariga asoslangan yangi bosqich uchun mustahkam zamin bo'ladi.

Shunigdek, O'zbekiston-Hindiston davlat rahbarlari vakillari o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuvlar davomida imzolangan shartnomalar ikki mamlakat hamkorligining muhim huquqiy asosini tashkil etadi.

⁷²Халқ сўзи газетаси. 2010 йил 20 май сони.

III- 606 O'zbekistonning Hindiston Respublikasi bilan madaniyat, ilm-fan, turizm va boshqa sohalardagi hamkorligi.

1. O'zbekiston-Hindiston davlatlari o'rtasida madaniy hamkorlikning yangi istiqbollari.

O'zbek va hind halqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari uzoq tarixga ega. O'zbekiston ham, Hindiston ham qadim sivilizatsiya beshiklaridandir. Buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy XI asrda ushbu diyorda bo'lgan, o'zining mashhur "Hindiston" asarini bu sehrli mamlakatga bag'ishlagan. Unda hind diyorining tabiati, tarixi, halqining hayot tarzi, falsafiy-diniy dunyoqarashlari haqida hikoya qilingan. Buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur esa XVI asrda "Boburnoma" kitobi bilan butun dunyo uchun Hindistonni yangidan kashf qildi, hind halqini esa Vatanimizning go'zalligi, ko'rki-tarovati bilan tanishtirdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar yangi mazmun bilan boyidi, hamkorlik izchil taraqqiyot yo'liga tushdi.

Hindiston va O'zbekiston o'rtasida madaniy hamkorlik aloqalari ham ko'pqirrali va sermahsuldir. Hindiston va O'zbekiston halqlari o'rtasidagi madaniy aloqalar keyingi yillarda kengayibgina qolmasdan, sifat jihatdan yangidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu aloqalar birinchi ko'rgazmalar va konsert dasturlarini almashishdan boshlab, boshqa halqning milliy harakteri va uning madaniyatining xususiyatlarini tushunib yetishgacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tgan.

Hindiston madaniyati o'zining xususiyatlari, yo'nalishlari, oqimlari, janrlari, milliy xususiyatlari bilan ajralib tursada, ayrim tomonlari bilan o'zbek madaniyatiga yaqinligi yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun hind san'ati ustalarining O'zbekistondagi chiqishlari halqimiz tomonidan har doim kata qiziqish bilan qabul qilinib kelingan va davlatimiz madaniy hayotida katta ahamiyat kasb etib kelgan va kelmoqda. Madaniyat va san'at namoyondalaridan iborat delegatsiyalarning muntazam ravishda fikr almashtirib turilishi ikki halq

o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos harakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, 1993 yilda ikki mamlakat o'rtasida tuzilgan madaniyat sohasiga oid hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiya doimiy faoliyat yuritib kelmoqda. 1998-2010 yillar mobaynida ushbu komissiya 10 ta yig'ilishni o'tkazdi. 2007 yil oktabr oyida Toshkentda Hindistonning ilmiy-texnologiya ko'rgazmalari bo'lib o'tdi.⁷³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil apreldagi Hindistonga tashrifi⁷⁴ chog'ida ta'lim va madaniyat sohasida hamkorlik bo'yicha hukumatlararo hujjatlar imzolandi, "o'zbekturizm" milliy kompaniyasi bilan hindiston sayyohligini rivojlantirish kompaniyasi o'rtasida anglashuv bayonnomasi, Jahon iqtisodiyot va diplomatiya Universiteti bilan J. Neru nomli Dehli Universiteti hamda Toshkent Sharqshunoslik instituti bilan Mirzo G'olib nomidagi instituti o'rtasidagi anglashuv memorandum va Farg'ona davlat universiteti bilan Hindistonning Kal'kuttadagi Mavlono Abdul Kamol Ozod nomli Osiyoni o'rganish tadqiqot instituti⁷⁵ bilan hamkorlik to'g'risidagi bitimlar imzolangan.

Ma'lumki, 2005 yil Prezidentimizning davlat tashrifi bilan Hindistonda bo'lganlarida, 13 ta hujjat imzolangan edi. Ushbu hujjatlarning 5 tasini ta'lim va madaniyat sohasidagi hamkorlik tashkil etadi. Ta'lim sohasining yuksak ahamiyatini inobatga olgan holda tomonlar bu yo'nalishda hamkorlik dasturini ishlab chiqdi va oliy o'quv yurtlari aloqalariga keng yo'l ochib berdi. Madaniyat sohasida 2005-2007 yillarga mo'ljallangan dastur⁷⁶ halqimizni yanada yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

Hukumatimiz rahbari fan, ta'lim sohalaridagi hamkorlik ham dolzarb ahamiyatga bog'liqligini e'tiborga olib, tarix va falsafa bo'yicha qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, madaniyat va san'at namoyondalarining o'zaro aloqasini yanada kengaytirish masalalarini ilgari surdi.

⁷³Гофуров А. Хиндистон. 2010 йил. -111 бет

⁷⁴Халқ сўзи. 2005 йил 8 апрел сони

⁷⁵Гофуров А. Хиндистон. 2010 йил. -112 бет

⁷⁶Халқ сўзи. 2005 йил 8 апрел сони

Prezident I. Karimov 2005 yildagi Hindiston safarida “Humoyun” yodgorlik majmuasiga ziyorat qilgani brogan edi. Bunga asosiy sabab ajdodlarimizning hind zaminda qoldirgan ulkan merosi halqimizning tarixiy mushtarakligidan dalolat berishi bilan, “Toj Mahal” kabi obidalar o’zbek halqi uchun ham qadrlı va azizligini dalolatchisidar. Terrorizmga qarshi kurash bo’yicha qo’shma ishchi yig’ilishida O’zbekiston-Hindiston davlatlarining maxsus vakillari ishtrokida bo’lib, o’tgan terrorizm tahdidini mintaqalar va jahonda globallashuvga qarshi ularning narkotik savdo bilan bog’liqligini to’xtatish to’g’risida axborotlarni va hamkorlikni yanada kuchaytirish lozimligi qayd etib o’tilgan. Mazkur ishchi guruhlarining yig’ilishlari 1993, 2005 va 2007 yillari muntazam takrorlanib, axborot almashib turilgan.

Toshkentda bo’lib o’tilgan juda ko’plab xalqaro, mintaqaviy simpoziumlarda, seminar va anjumanlarda nafaqat faol ishtrokchi, balki tashabbuskor- tashkilotchi sifatida Hindistonning ko’plab xalqaro va ichki tashkilotlari, fondlari, elchixonasi, Hindistonning madaniy markazi ham faol ishtrok etib kelmoqda. Masalan, 1999-2008 yillarda bunday anjumanlar, seminarlar Toshkentda 8 marta o’tkazilgan.⁷⁷ Shulardan biri 2007yil aprel oyida bo’lib o’tgan Hindistonning “Qishloq va sanoatni rivojlantirish tadqiqot markazi” bilan O’zbekiston “Mintaqaviy siyosiy fondi” o’rtasida demokratik rivojlantirish va xavfsizlikni jahon miqyosida ta’minlash bo’yicha Xalqaro konferensiyasi bo’lib o’tdi. Unda Markaziy Osiyo, Buyuk Britaniya, Hindiston, Xitoy, Pokiston, Rossiya, AQSH, Fransiya va O’zbekistondagi diplomatik korpus vakillari ishtrok etdi. Mazkur konfrensiyada Hindistonda 5 nafar olimlar, Toshkent jahon iqtisodiyoti hamda diplomatiya vaxalqaro munosabatlar universiteti holimlari ham ishtrok etishgan.

Konfrensiyada Hindistonning O’zbekistondagi muxtor elchisi Skand Toyal ishtrok etib, nutq so’zlagan. Elchi o’z nutqida O’rta Osiyo halqlarining hayotiy tarziga, madaniyatiga rahna solayotgan fundamentalistik, aqidaparaslik

⁷⁷Гофуров А. Хиндистон. 2010 йил. -113 бет

g'oyalarining chetdan kirib kelishi xavfiga qarshi birgalikda kurash olib borishlik hozirgi kunimizning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Hindistonga tashrif buyurgan har bir sayyoh mo'ljalni avvalambor mamlakat poytaxti – Dehli yo'naltiradi. Poytaxt ikki qismga- yangi va ko'hna shaharlarga bo'linadi. Yangi shahar markazida Lakshmi Narayan ibodatxonasi qad roslagan. Bu go'zal inshoat Krishna ma'budi va uning rafiqasi Lashmi sharafiga barpo etilgan. Ko'hnaDehli yuqori- Qizil qal'a sanaladi.Bu yerda sohibqiron Amir Temur avlodlari bo'lmish boburiylar sulolasi hukmdorlarining qarorgohi joylashgan.XVII asrlarda yerda jannat mavjud bo'lgan bo'lsa, u aynan mana shu yerda edi.Boburiylar sulolasining yorqin namoyondasi Shoh Jahon barpo ettirgan Qizil qal'a yer yuzidagi eng go'zal inshoatlardan biri sanaladi.Istehkom devorlari qizil qumdan qurilganligi bois u “La'l qal'a” deb ham ataladi.Shoh jahon sevikli rafiqasining o'limidan so'ng qarorgohni Agradan Dehliga, anig'rog'i, Shohjahonobod deb ataluvchi yangi shaharga ko'chirdi.Xuddi mana shu paytda Qizil qal'a qurilishi boshlanib ketdi. Qal'ada bir-biridan go'zal oltita saroy qad ko'targan. Go'zal saroylar majmui 1639-1648 yillarda barpo etilgan bo'lib, butkul marmar, kumush va oltindan yasalgan. Necha asrlar o'tgan bo'lsa-da, betakror binolar o'z go'zalligini saqlab qolgan.Hindlarning muqaddas diyorlaridan biri Jamna bo'yida qad qo'targan Agra shahri Boburiylar saltanatining poytaxti sanalgan. Shu bois ham hukmdorlarning o'zgacha mehr-u muhabbatiga sazovor bo'lgan shahar Hindistonning eng go'zal shaharlaridan biriga aylandi. Xuddi shu yerda podshoh Zahriddin Muhammad Bobur birinchi bo'lib bog'ni tashkil etdi.Boburiylar sulolasining qudratli hukmdorlari tomonidan qad ko'targan Agra qal'asi o'sha davr arxitektura san'ati namunalarini o'zida uyg'unlashtirgan me'moriy durdona bo'ldi.Agra atrofida joylashgan Sikandra shaharchasida Akbarshoh bog'lari bilan o'ralgan maqbara qurdiradi.Fathpur Sikrida esa inson fantaziyasining eng oliy ko'rinishi aks etgan butun bir shaharni barpo ettiradi. Bu yerda islom va budda arxitekturasi uyg'unligi umuman yangi bir me'morchilik uslubining yaratilishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda Fatxpur Sikri kimsasiz arvoh-shaharlarga aylangan.

Biroq qal'a jangu jadallar xujumidan omon qolgan va asl holida bizgacha yetib keldi. Bugungi kunda shu me'moriy obidalar Hindistonning, balki shu imoratlarning bunyod bo'lishiga sababchi bo'lgan Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan Boburiylar sulolsasi kindik qoni to'kilgan O'zbekiston davlatining ham qiziqishidan cheta qolgani yo'q. Hindiston ramzi sanalmish Toj mahal arxitektura san'ati mo'jizasi sifatida dunyo ahlini hayratga solib kelgan. Dunyoda unga teng keladigan inshoot bo'lmasa kerak. Mahobatli inshoot yaratilishi maqsadi jihatidan ham o'ziga xosdir. Bu oppoq go'zal bino haqiqatdan ham o'zi kabi oppoq orzularning chilparchin bo'lishi oqibatida yaratilgan. Uni juda ham badavlat, sevgi dardidan devonaga aylangan Shoh jahon barpo ettirgan.⁷⁸

Bizga ma'lumki, minglab sayyohlarni o'ziga rom etuvchi butun dunyoga mashhur sharq bozorlarida ipak sarilar, ro'mollar, marmar haykalchalar, fil suyagidan yasalgan buyumlar, zargarlik durdonalari ko'zlarni qamashtiradi. Ganga daryosi buriladigan joyda Varanasi shahri qad ko'targan. Hindlar bu makonni muqaddas go'sha sanashadi. Rivoyatlarga ko'ra, aynan mana shu yerda budda dunining eng asosiy ma'budlaridan biri Shiva ruhi kezib yurarkan. Aytishlaricha, xuddi shu yerda Shiva ilk nutqini aytgan ekan. Go'zal Sarasvati ma'budasi sharafiga uyushtiriladigan bayram chog'ida mahalliy aholi am'budaning mingdan ortiq haykalchalarini yasashadi. Shundan keyin haykallarni qayiq'larga ortib, muqaddas diyorning o'rtasiga olib borib, ularni cho'ktirishadi. Bu bilan ular ko'p sonli ma'budlar amrini bajarisharkan. Mumbaydan suv yo'li orqali borilsa, Elefant oroliga yetish mumkin. Ulkan g'orda joylashgan ibodatxonalar bu yerni o'ziga xos qilib ko'rsatadi. VII asrda mohir ustalar tomonidan tosh g'orda o'yilgan ibodatxonalar rim kollizeyi hajmlariga tengdir.⁷⁹

⁷⁸Хайридин. С. Бобурийнома. Т., 1996 й.

⁷⁹Ўзбекистонда ижтимоий фан. Т. 1997 йил № 12 сони.

Bugungi kunda ham O'zbekiston va Hindiston aloqalari har doyimdan ham tezroq rivojlanib bormoqda. Buni biz O'zbekiston mustaqillikka erishgandan boshlab to bugungi kungacha bosib o'tgan yillar davomida Hindiston bilan olib borgan aloqalarning nechog'lik kengligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, Toshkent sharqshunoslik institutida (2006 yil mart), qarshi davlat universitetida (2007 yil noyabr), Farg'ona davlat universitetida (2007 yil, sentabr), Buxoro va Samarqand shaharlarida Hindiston va O'zbekiston davlatlari madaniyat, iqtisodiyot, siyosiy munosabatlariga oid ilmiy-amaliy konfederasiyalari va seminarlar bo'lib o'tganligini alohida takidlab o'tish joiz. 2007 yil 13-15 sentabr kunlari Farg'ona shahrida Hindiston madaniy markazi qarashdagi havaskorlik guruhi konserti bo'lib o'tdi. 2007 yilda (sentabr) bo'lib o'tgan "O'zbekiston-Hindiston o'rtasida rivojlanayotgan hamkorlik munosabatlari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaga Hindistonning O'zbekistondagi muxtor elchisi Skanu Toyal ham tashrif buyurib, ma'ruza qildi. Shuningdek, konferensiyada ellikka yaqin ma'ruzalar tinglanib anjuman materiallari to'plami nashr qilindi.⁸⁰

O'zbek-hind san'atining, ayniqsa, qo'shiqchilik va raqs borasidagi yaqinligi an'anaviy davomiyligi, 1997 yilda tashkil etilgan Samarqanddagi "Sharq taronalari" festivalida Hindistonlik san'at ustalarining faol ishtiroki bilan ham namoyon bo'lmoqda. 2007-2012 yillar davomida o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" festivalida Hindistonlik san'at ustalari o'zlarining klassik kuy va qo'shiqlari bilan faol ishtirok etib kelishmoqda. O'zbekiston Respublikasi va Hindiston o'rtasida madaniy aloqalarni ikki davlat o'rtasida madaniyat namoyondalari turli tadbirlar, amaliy va tasviriy san'at asarlari ko'rgazmalari tashkil etishdagi ishtiroki bilan ham baholash mumkin.⁸¹ Shuningdek Hindistonlik madaniyat xodimlarining kinofestivallar va boshqa madaniy sohalarda tashkil etilib, kelinayotgan festivallarda doimiy ravishda ishtirok etib kelishlarini ham alohida ta'kidlash mumkin. Sport sohasidagi aloqalar ham sezilarli darajada

⁸⁰Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. 2000.- 483 бет

⁸¹Жамият ва бошқарув 2005 йил №2 Б 60-65

faollashmoqda. Hindiston Milliy kurash assotsiatsiyasi samarali ish olib borayotganligini ham alohida ko'rstish mumkin.

Halqimizning ma'naviy-ma'rifiy hayotda "Ma'naviyat va ma'rifat" respublika kengashi va uning tarkibidagi jamoatchilik markazi munosib o'rin egallaaydi. Yosh iste'dodlar o'z ijodlari bilan o'zbek san'atini dunyoga namoyish etmoqda. 2000 yilda Toshkentlik litsey o'quvchisi, yosh rassom Oybek Islomov o'z asarlari bilan Hindistondagi Butunjahon bolalar san'ati qo'mitasi o'tkazgan "Shankar" ko'rgazmasida ishtrok etib, Javoharla'l Neru nomidagi oltin medal bilan taqdirlanganligi ham diqqatga sazovordir.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti xalqaro miqyosda taninilishiga hamda hukumatmonidan olib borilayotgan siyosatning natijalarini namoyon qilishda hujjatli fil'mlar muhim ahamiyatga ega. "O'zbekkinoxronik" studiyasi ijodkorlari V. Ishoqov va Sh. Qurbonboyevlar Prezident I. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" nomli kitobiasosida olingan "Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" nomli ko'p qismli hujjatli fil'mi Yevropa va Osiyoning ko'plab davlatlarida jumladan Hindistonda ham namoyish etildi. Jumladan, Hindistonda bo'lib o'tgan taqdimot marosimi o'zbek hujjatli fil'mlarining Hindistondagi dastlabki madaniy tadbiri edi. Ushbu fil'm Prezident asarida qo'yilgan muammolar va vazifalarni hayotga qanday tadbiq etilayotgani, O'zbekistonning iqtisodiy potentsiyali, xorijiy investorlar bilan hamkorligi, umuman, mamlakat taraqqiyot qiyofasini belgilab bergani sababli Hindistonlik ishbilarmon doiralari iqtisodchi, siyosatchi va madaniyat xodimlarini o'ziga tortdi.⁸²

Mustaqillik yillarida munosabatlarning yangi yo'nalishi shaxsiy tashabbuslar orqali madaniy aloqalar o'rnatish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston-Hindiston davlatlari madaniy aloqalari rivojida mumtoz musiqa va qo'shiqchiligi namoyondalarining ham o'rni beqiyos. Mustaqillik yillarida Hindistonga qilingan san'atkorlarimizning xizmat safarlaridagi konsert dasturlari o'zining

⁸² Асадова Р. Б. Сотрудничество между Узбекистаном и Индией в области экономики и культуры: исторические основы и современное состояние (1991-2001 гг.) : Автореф. дис.. канд. ист. Наука. – Т.; 2007., -29 с

takrorlanmasligi, o'ziga xos qirralari bilan Hindiston halqi ixlosmandlarini hayratga soldi. Ular orqali Sharq musiqasi ixlosmandlri o'zbek mumtoz musiqasi bilangina tanishib qolmasdan, musiqiy asboblari, ularning ohangi va chalinish uslublari bilan yaqindan tanishdilar.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro miqyosda milliy musiqa asrab avaylash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish va Sharq halqalarining o'ziga xos milliy musiqa san'atini jahonga tanitish borasida jonbozlik ko'rsatib kelmoqda. Shu maqsadda YUNESKO tashabbusi bilan BMT tomonidan "Tinchlik madaniyati" ko'p yillik dasturiga O'zbekiston "Sharq taronalari" festivali bilan juda katta hissa qo'shmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 11 mart qaroriga asosan har ikki yilda bir marta Samarqandda o'tkazilib kelinayotgan "Sharq taronalari" festivalining xalqaro miqyosdagi salohiyatini oshirish va ahamiyatini yuksaltirish maqsadida mamlakat rahbariyati tomonidan kata e'tibor berilishini O'zbekiston Respublikasining obro'sini jahon hamjamiyatida mustahkamlanmoqda. Yuqorida takidlab o'tganidek, Hindiston san'at ustalarining uzliksiz ravishda "Sharq taronalari" festivalida ishtirok etib kelishlari ham bunga misol bo'la oladi.

"Sharq taronalari" festivalini o'tkazilib kelinishi O'zbekistonning madaniy integratsion jarayonlardagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xalqaro munosabatlar va hamkorlik amaliyoti tajribasidan ma'lumki, xalqaro turizm ham jahon halqlari ma'naviy jihatdan yuksaltirishda katta o'rin egallaydi. Jahonning ko'plab sayyohlari, jumladan qadimiy shaharlari bo'lmish- Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda bo'lish istagini bildirmoqdalar. O'zbekiston va Hindiston madaniy hamkorligini mustahkamlashda va rivojlantirishida "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi, shungdek, respublikamizdagi "O'zintur", "Sayram turizm", "Aziya trevl", "Marko Polo" va boshqa sayyohlik firmalari hindistonlik sheriklari bilan faoliyat ko'rsatib kelishmoqda.⁸³

⁸³Усаров Ф. У . Ўзбекистон Республикаси ва Жанубий-Шарқий Осиё мамлакатлари ўртасида иқтисодий ва маданий соҳалардаги ҳамкорлик. Автореф. дисс тарих фан номзодю Тошкент- 2010., 24-бет.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida milliy san'atni rivojlantirish va saqlash borasida olib borilayotgan samarali davlat siyosati o'laroq, asrlar davomida rivojlanib kelayotgan milliy san'atni bugun ham jahon maydonida keng quloch yoyib tanitishmoqda. Bu sohada amalga oshirilgan islohatlar va ularni amalga oshirish uchun yaratilgan imkoniyatlar o'zbek san'ati tarixiy shaxslarning tavallud ayyomlari, qadimiy shaharlar yubleylari, milliy bayramlar, konsert dasturlari, rasmiy tashriflar, turizmni rivojlantirish maqsadida tanishtiruv ko'rgazmalari, shaxsiy tashabbus orqali targ'ib qilinmoqda.

Shunday qilib, tadqiqot natjalari ikki mamalakat halqlarining madaniyat, sport, turizm fan va ta'lim sohasidagi ko'p qirrali hamkorlik aloqalari O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarning mustahkamlanishiga munosib hissa qo'shib kelayotganini ko'rsatadi.

2. O'zbekiston va Hindiston davlatlarining ilm-fan, san'at va boshqa sohalaridagi madaniy aloqalarining halq diplomatiyasi shakllaridan biri sifatida mustahkamlanishi.

O'zbekistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi barcha sohalarqatori tashqi siyosatda ham ma'lum cheklanishlarni vujudga keltirdi. Davlatlararo hamkorlik ma'muriy buyruqbozlik tizimiga asoslangan, mafkuraviy tazyiq ostida, siyosiy manfaatlardan kelib chiqqan holda o'rnatila boshlandi. Bunda halqlarning milliy urf-odati, an'anasi, milliy madaniyat va san'at durdonalarini jahonga tanitish sovet davlati mafkuraviy manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilar edi. Shu tariqa o'zbek madaniyatiga ham sotsialistik tus berilib, u ma'lum qolip asosida rivojlandi. Milliy madaniyatni rivojlantirish, dunyoga tanitish yo'lidagi har qanday harakat "millatchilik" ko'rinishi deb baholandi. Ayniqsa, tariximizni yoritishda halqimizning buyuk diniy ulamolari Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshbandiy, Iso at-Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Burxoniddin Marg'iloniy kabilarni, siyosat dunyosida Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Boburmirzo, Ulug'bek, Amir Umarxon kabi hukmdorlar, donishmandlarni ko'klarga ko'tarish hamda "millatchilik", o'z millatini boshqa qardosh halqlardan ustun qo'yish kabi ayblar bilan milliy g'ururi pastga urib tashlanar edi. Shunga qaramasdan, bir qator ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san'at arboblari o'zbek halqining milliy qadriyatlarini saqlab qolish uni jahonga tanitish yo'lida samarali faoliyat olib bordi. Bunga misol tariqasida tadqiqotimizda quyidagilarni ta'kidlab o'tmoqchimiz.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab Hindiston va O'zbekiston olimlari o'rtasida mustaqil aloqalar o'rnatish bo'yicha "Markaz"ning ruxsati berilgandan so'ng, ilmiy hamkorlikning barcha sohaları bo'yicha aloqalar o'rnatila boshlandi. Toshkent davlat universiteti Sharqshunoslik fakultetida hind filologiyasi kafedrası ochilib, talabalarga hind tillari, urdu, bengal, panjobiy lahjalari o'rgatila boshlandi. Shuningdek, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik

institutida ham Hindiston tarixini yorituvchi manbalar to'planib, 1957 yilda Hindiston va Pokiston halqlari tarixi, iqtisodi va madaniyati sektori tashkil qilindi.⁸⁴ Institutga Hindistonning yetakchi olimlari tashrif buyurishi bilan davlat arboblardan J. Neru, Rajendra Prasad, La'l Bahodir Shastri, Indra Gandi kabilar ham rasmiy davlat tashrifi bilan O'zbekistonga mehmon bo'lib kelishgan. Ular institutda Hindistonda adabiyot bo'limi va hind qo'lyozmalari fondini ko'rib hayratlanishgan.⁸⁵

O'tgan asrning 50-90 yillari davomida O'zbekistonda hind yozuvchi va shoirlardan Robindranat Tagor, Prem Chand, Krishan Chandr, Sajjad Zohid, Amrita Pritam, Ali Sardor Jafriylarning asarlari o'zbek tiliga o'girilgan. Shuningdek, o'zbek mumtoz adabiyotining namoyondalaridan shoira Zulfiyaning "Mushoira" deb nomlangan she'rlar to'plami, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani hind tiliga, panjob tiliga, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani, Oybekning "Qutlug' qon", G'ofur Gulomning "Shum bola" asarlari hind tiliga o'girilib, Hindistonda ko'plab tirajlarda chiqarilgan.⁸⁶ 1983 yilda Hindistonning "Shiriram Bhartiya kala kendra" raqs drama truppasi Toshkentda gastrolida bo'lib, uning badiiy rahbari Amok Bxagava o'z safaridan mamnun bo'lib shunday fikr bildirgan edi: "Toshkent shahrida bizni eng aziz mehmonlar sifatida qabul qildilar. Biz o'nlab mamlakatlarda o'z san'atimizni namoish qilganmiz, lekin hech qayerda bu yerdagi kabi san'atni yaxshi tushunadigan va minnaddorchilik bildiradigan halqni ko'rmadik....Toshkent xoreografiya bilim yurtida bo'lganimizda, bu yerda raqqoslarga yuqori professional darajada bilim berayotganiga shohid bo'ldik. Biz "Bahor", "Lazgi" kabi o'zbek raqs ansambillarining qanday mustahkam asosga ega ekanliklarini endi angladik. Men ularni Hindistonda konsert berganlarini ko'rmaganman, ulardan juda hayratlangan edim."⁸⁷

⁸⁴ . Аъзамова С. Обидов Б. Ҳозирги Ўзбекистон .Т. 1991.-56 бет

⁸⁵ Ўша манба. Т. 57 бет

⁸⁶ Аъзамова С. Обидов Б. Ҳозирги Ўзбекистон .Т. 58 бет.

⁸⁷ Ўша манба Т. 59 бет.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, madaniy-ma'naviy sohada ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining o'zbek halqining boy madaniy merosi, milliy qardriyatlari, xalqaro munosabatlarning tarixiy tajribasi inobatga olingan. Xalqaro madaniy aloqalarning o'rnatish ma'suliyati bir qator vazirliklar, idoralar, muassasa, davlat va nodavlat tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan. Shu bilan birga, davlatlararo madaniy aloqalarni o'rnatish hamda rivojlantirish maqsadida mamlakatimiz mahalliy⁸⁸ va xalqaro⁸⁹ institutlari tizimi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi va Hindiston o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishda ushbu davlatda joylashgan "Hind madaniy aloqalar kengashi" (ISSR), "O'zbekiston-Hindiston do'stlik jamiyati", "O'zbekiston-Hindiston axborot texnologiyalari" markazi va boshqalar ham davlatlar o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonning Hindiston o'rtasida madaniy aloqalarining rivojlanishida tomonlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston va Hindiston davlati bilan madaniy aloqalar uzoq tarixga ega bo'lib, o'tgan davr mobaynida xalqaro iqtisodiy, siyosiy masalalarni hal qilishda, shuningdek, madaniy aloqalarni o'rnatishda boy tajribaga erishilgan. Bugungi kunda madaniy hayot sohasidagi olib borilayotgan davlat siyosati O'zbekistonning xalqaro madaniy aloqalar integratsiyalashuvida dunyoning boshqa mamlakatlari orasida o'z mavqeyini mustahkamlashga olib keldi. Mamlakatning boy madaniy salohiyatga egaligi, o'zbek milliy

⁸⁸Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг 1992 йил 13 январдаги "Республика байналминал маданий маркази" тўғрисидаги қарори (Вазирлар Маҳкамаси қарорлар тўплами № 1 43-44 бет) 1992 йил 25 мартдаги "Ўзбекистон Республикаси халқаро маданий-маърифий алоқалар миллий уюшмасини ташкил этиш" тўғрисида (Вазирлар Маҳкамаси қарорлар тўплами № 3 Б. 157.) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 8 ноябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар Вазирлиги ҳузуридаги Ахборот агентлигини ташкил этиш" тўғрисидаги қарори (Вазирлар Маҳкамаси қарорлар тўплами №10 Б. 9) 1996 йил 25 сентябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар Вазирлигида маданият фан ва туризм соҳасида халқаро ҳамкорлик бошқармасини ташкил этиш" тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори (Вазирлар Маҳкамаси қарорлар тўплами №9 Б. 91)

⁸⁹1994 йил декабрдаги ЮНЕСКО ишлари бўйича "Ўзбекистон Республикаси миллий комиссиясини ташкил этиш" тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори. № 12 Б. 34.) 1995 йил майдаги "Тошкент шаҳрида халқаро ислом тадқиқот марказини ташкил этиш" тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори. № 5. Б. 23).

madaniyatining umuminsoniy salohiyatga egaligi, o'zbek milliy madaniyatining uminsoniy qadriyatlarga mos kelishi dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinmoqda.

Hozirgi kunda respublika oliy ta'lim muassasalari xalqaro dasturlarda ishtirok etish bilan birga tog'ridan-to'g'ri xorijiy ta'lim muassasalar bilan ham hamkorlik qilib kelmoqda. 1947 yilda Hindiston o'z mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng hozirgi Toshkent davlat sharqshunoslik institutida Janubiy Osiyo tillari kafedrasiga asos solingan. Shu yildan e'tiboran O'zbekistonda Hindistonning davlat tili-hindiy tili o'qitilib kelinmoqda.

1991 yil O'zbekiston mustaqilligini dunyo hamjamiyati tan olgandan boshlab, O'zbekiston-Hindiston ilm-fan yo'nalishidagi hamkorlik aloqalarida yangi davr boshlandi. Sharqshunoslik institutida o'zbek olimlari bilan bir qatorda hind mutaxassislari – J.Sarkor, Qamar Rayis, Tivariy Faruqiy, Xoshimiy, Suryakumariy, Muhammad Amin kabilar faoliyat yuritib, o'z ma'ruzalari bilan o'zbek talabalariga hind tilini mukammal o'rganishida ko'mak berganlar. O'zbekistondako'p yillar mobaynida hindiy tili ustozi Madan Mo'han Hardat faoliyat ko'rsatgan. O'z o'rnida bu olim halqlarimiz o'rtasidagi iml-fan aloqalarini rivojlantirish borasida katta xizmatlar qilgan. Qisqa muddatda O'zbekistonda ham hindshunos mutasassislar yetishib chiqdi. R.Qayumov, S. Chernikova, O. Shomatov, T. Holmirzayev, R. G'ulomova, X. Begizova, Sh. Jalilov, A. Aulova, O. Polinova, T.Xo'jayevlar hind tili bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan va ilmiy darajaga erishganlar.⁹⁰

Hozirgi kunda kafedra filalogiya fanlari doktori, professor O. Shamotov, filalogiya fanlari doktori, professor A. Ibrohimov, va boshqa hindshunos olimlar faoliyat olib borishmoqda. Salkam 70 yilga yaqin yillar davomida bu yerda 800 nafarga yaqin mutaxassis kadrlar tayyorlangan. 50 nafarga yaqin bitiruvchi esa hindshunoslikning dolzar muammolariga bag'ishlangan nomzodlik va doktorlik dissertasiyalarni himoya qilishgan.⁹¹ Bugungi kunga kelib institute professor

⁹⁰Ўзбекистонда ижтимоий фан. 2005 йил № 1-2 б 60-65 бет.

⁹¹ www.gazetabirja. Дўстона ҳамкорлик.

o'qituvchilari tomonidan hindiy tilining muxil yo'nalishlari bo'yicha 10 dan ortiq monografiya, 300 dan ziyod darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma va ko'plab ilmiy maqolalar e'lon qilingan.⁹² Bunga R. Aulovning "Hindiy tili", R. Muhammadjonovning "Urdu tili", O. Shomatovning "Janubiy Hindistoniy tili xrestomatiyasi", "Qadimgi hind madaniyatiga oid so'zlar lug'ati", "Hindiy tilining me'yyoriy gramatikasi" va kafedra o'qituvchilari tomonidan tuzilgan va Hindistonda chop etilgan "hindiycha-o'zbekcha lug'at" ni ta'kidlash e'tiborga loyiqdir.

O'zbekistonda hindiy tiliga ixtisoslashgan bir necha maktablar mavjud bo'lib, instituti olimlari ushbu ta'lim dargohlari uchun hindiy va urdu tillari bo'yicha o'quv dasturlari, turli adabiyotlar yaratish ustida ham ish olib borishmoqda. Yaqinda sharqshunoslik yo'nalishidagi litsey o'quvchilari uchun "Hindiy tili" darsligi nashrdan chiqarildi. Toshkent davlat sharqshunoslik institutida bakalavr va magistrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish, zaruriy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash borasida qilingan ishlarni ham ta'kidlash lozim. Professor O. Shomatovning uch qisimdan iborat "Janubiy Osiyo tillariga kirish", dosent T. Xo'jayevning "Hindiston halqlari adabiyoti" kabi risola va o'quv qo'llanmalari ham e'tiborga loyiq. O'tgan davrda Janubiy Osiyo mintaqasi tillarining ilmiy-nazariy o'rganishiga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu ishlar mavzusi an'anaviy tarzda tadqiq etilayotgan Sharq tillari leksikalogiyasi muammolari bilan chambarchas bog'liq.⁹³

Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti olimlari ko'plab xalqaro olmiy anjumanlarda ishtrok etib, O'zbekiston hindshunoslik maktabi yutug'larini jahon miqyosida ham namoish qilib kelmoqdalar. Institutning professor-o'qituvchilaridan O. Shomatov, T. Holmirzayev, A. Ibrohimov, M. Abdurahimovlar Hindiston, AQSH, Angliya, Pokiston, Turkiya kabi davlatlarda bo'lib o'tgan konferensiya va ilmiy seminarlarda hindshunoslik bo'yicha ma'ruzalar o'quv kelayotganligini alohida qayd etish lozim. O'zbekiston va

⁹² www.gazetabirja.Davlatlararo iqtisodiy hamkorlik.

⁹³ Ўзбекистонда ижтимоий фан. 2005 йил №1-2 б 60-65 бет.

Hindiston o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishda Hindistonning Toshkentdagi madaniyat markazining roli, ayniqsa, muhimdir. Bu borada Toshkent Sharqshunoslik instituti o'qituvchilari markazdagi hindiy tili va hindshunoslik kurslarini olib borishadi. Shu bilan birga, Hindiston elchixonasi va markaz bilan hamkorlikda hind adabiyotini o'zbek tiliga tarjima qilish, nashr etish bo'yicha ham katta ishlarni amalga oshirib kelishmoqda. Bunga misol ta'riqasida, qadimgi hind didaktik adabiyoti namunalaridan biri "Huto'na-desha" yoki ibratli hikoyalar nomli asar A. ibrohimov tarjimasida chop etilgan "Chiroq yonar tun bo'yi" deb nomlangan hind yozuvchilari hikoyalaridan iborat to'plamni o'zbek tiliga o'girish va chop ettirishda institute o'qituvchilari markazi bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda.

Shuningdek, Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti bilan Hindiston madaniyat markazi hindiy tilining o'qitilishi masalalariga oid xalqaro seminar o'tkazilib, unda Hindistondan tashrif buyrgan bir guruh olimlar ma'ruza qilishdi. 2011 yilga qadar Toshkent davlat sharqshunoslik institutiga Hindistonning O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan ikki mingdan ortiq ilmiy, badiiy adabiyotlar hamda kompyuterlar taqdim etilgan.⁹⁴ Toshkent davlat sharqshunoslik institute qoshida 2008 yilda Maxatma gandi nomidagi hindshunoslik ilmiy markazi tashkil etilgan.⁹⁵ Ushbu markazning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi hindshunoslikning dolzarb masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib boorish, turli xalqaro konferensiyalar o'tkazish, ikki halq adabiy aloqalarini yanada rivojlantirish borasida bir qator masalalar qatorida tarjima yo'nalishiga ham alohida e'tibor qaratishdir. Toshkentda 2008 yilning aprel oyida Javaharlal Neru nomidagi O'zbekiston- Hindiston axborot texnologiyalari markazi ochildi.⁹⁶ Dehli shahrida 2011 yilning yanvar oyida axborot texnologiyalari bo'yicha O'zbekiston-Hindiston qo'shma ishchi guruhining birinchi majlisi bo'lib o'tdi.

⁹⁴ [www. Gaetabirja. Uz](http://www.Gaetabirja.Uz). Кеча ва бугун.

⁹⁵ O'sha sayt. Davlatlararo iqtisodiy hamkorlik.

⁹⁶ Davr. 2011 yil 14 may.

O'zbekistonda ta'lim sohasini tashkillashtirish, sog'liqni saqlas, inson resruslarini rivojlantirish sohasida hamkorlik qilish bo'yicha boy tajribaga ega. Hindistonning Texnik-iqtisodiy yordam (ITES) dasturi doirasida ko'plab o'zbekistonlik mutaxassislar ushbu mamlakatning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari, suv resruslarini boshqarish, bank ishi, mehmonxona biznesi kabi yo'nalishlar bo'yicha o'z malakasini oshirdi. 2010 yilda Hindiston hukumati O'zbekiston sog'liqni saqlash muassasalariga tibbiy uskunalar sotib olish uchun 1 million dollar xajmda grant ajratdi.⁹⁷ Hozirgi kunda jahon miqyosida axborot texnologiyadan foydalanish, ularni hayotda keng foydalanish borasidagi e'tibor kuchayib bormoqda. Bu sohani rivojlanib borishining asosiy sabablaridan biri jamiyatchilikning barcha sohalarida, ta'lim, fan-texnika, medisina, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, aviasiya, kosmos, hatto siyosiy boshqaruv tizimida ham axborot-texnologiyalarisiz ta'savvur qilib bo'lmaydi, shuningdek rivojlantirib bo'lmaydi.

Jahonning yetakchi davlatlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilishi mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda malakali kadrlar tayyorlash borasida sezilarli natijalarga erishilishiga xizmat qilmoqda. Buni dasturlash bozori yuksak darajada rivojlangan Hindiston bilan aloqalar misolida ham ko'rish mumkin. Hindiston Respublikasi aloqa va axborot texnologiyalari vazirligining davlat vaziri Sachin Paylot boshchiligidagi delegatsiyasining Toshkentga tashrifi muhim ahamiyatga molik ekanligini alohida takidlash lozim.⁹⁸ Hindiston aloqa va axborot texnologiyalari vazirligi delegatsiyasi axborot texnologiyalari sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoni bilan tanishish maqsadida "O'zbektelekom" AKning Telekommunikatsiya va personalni rivojlantirish markaziga tashrif buyurdi. Mehmonlar bu yerdagi ikkita leksiya xonasi bilan tanishdilar. Xonalar zamonaviy DWDM texnologiyasi, DATACOM ma'lumotlar uzatish, CDMA va GSM mobil aloqasi standartlari, optik uzatish

⁹⁷ Davr. 2011 yil. 14 may.

⁹⁸ Veb sayt. www. "Ziyo. Net. Uz". Azaliy do'stlik.

tizimlari uskunalari bilan jihozlangan. Markazda, shuningdek, barcha kerakli uskunar bilan jihozlangan xavfsizlik texnikasi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladigan xona, videokonferensiyalar va masofaviy ta'lim olib borishga mo'ljallangan konferenszal mavjud. Markaz faoliyati bilan yaqindan tanishgan mehmonlar o'quv xonalari va laboratoriyalarga yuqori baho berishdi. Delegatsiya a'zolari mamlakatimizda dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishida mutaxassislar tayyorlanishiga alohida e'tibor qaratdilar. Bu borada ularga Yosh dasturchilarni tayyorlash va qo'llab-quvvatlash markazi faoliyati misol keltirildi. Ushbu markazda keng turdagi IT-trening kurslari taqdim qilingani, ularda oddiy komputer savodxonligidan tortib, tarmoq administratorlari va muhandislari, ma'lumotlar bazasi dasturchilari va boshqa shu kabi sertifikatlashtirilgan mutaxassislarga tayyorlanishi ta'kidlandi.

Janob Sachin Paylot boshchiligidagi delegatsiyaning tashrifi dasturidan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti asosiy o'rin tutgan edi. Sababi — mazkur universitetda Javaharlal Neru nomidagi O'zbek-Hind axborot texnologiyalari markazi faoliyat ko'rsatadi. Uchrashuv chog'ida martabali mehmon universitet faoliyati bilan tanishtirildi. Jumladan, universitetning xalqaro aloqalari haqida gapirib berildi. O'z navbatida, vazir janoblari ushbu yo'nalishda talabalar, professorlar almashish yo'li bilan aloqalarni kengaytirish, hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish borasida ko'mak berishga tayyor ekanligini bildirdi. Mehmonlar, shuningdek, TATU va uning hududlardagi filiallari hamda mamlakatimizning boshqa oliy o'quv yurtlari o'rtasida tashkil etilgan masofaviy ta'lim jarayoni bilan ham tanishdilar. Shu kabi masofaviy darslarni Hindiston o'quv yurtlari bilan ham tashkil etish xohishi bildirildi. TATU qoshidagi O'zbek-Hind axborot texnologiyalari markazi O'zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi hukumatlari o'rtasida 2004 yil 29 oktabrda Dehli shahrida imzolangan Memorandum asosida tashkil topgan bo'lib, 2006 yildan o'z faoliyatini boshlagan. Uning ochilish marosimida Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Manmoxan Singx ishtirok etib, nutq so'zlagandi. Jumladan, unda quyidagi so'zlar bor edi: “Zamonaviy texnologiyalar vaqt va masofa borasidagi to'siqlarni

olib tashlashga, mamlakatlarning rivojlanish bosqichlarini tezlashtirishga imkon yaratdi. Aminmanki, mazkur markaz o'zbekistonlik mutaxassislariga jahon bozorida ishonch bilan raqobatga kirishishlari uchun bilim va ko'nikmalarni beradi".O'zbek-Hind markazi faoliyati qisqa vaqt ichida keng dairadagi qamrovli ishlarni amalga oshirishga erishdi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkin-ki, O'zbekiston va hindiston davlatlari o'rtasida ta'lim, ilm-fan va madaniy aloqalar sohasida olib borilayotgan aloqalar yil sayin mustahkamlanib, rivojlanib bormozda. Bu borada mamlakatimiz rahbari I. A. Karimovning davlat tashriflari davomida ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning yanad mustahkamlashga qaratilgan takliflari muhim o'rin tutadi.Bu respublikamizda ilm-fan, maorif tizimi taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsativ kelmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, O'zbekiston-Hindiston davlatlarining ilm-fan yo'nalishidagi hamkorligining istiqboli porloq.Barcha harakatlar zahirida esa halqlarimiz o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish g'oyasi mujassamlashgan.

Xulosa

Magistrlik Dissertatsiyasini yozish davomida dissertant bayon qilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib quyidagi yakuniy **xulosalarga** kelindi:

1. Siyosiy mustaqillikka erishgan O'zbekiston mamlakat va jamiyatni siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy va ma'naviy jihatdan yangilanishning strategik vazifalarini aniqlab oldi.
2. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab tashqi siyosiy faoliyatida Janubiy Osiyo mamlakatlari, xususan, Hindiston Respublikasiga alohida e'tibor qaratdi. Chunki yangilanish va taraqqiyot yo'liga kirib borayotgan O'zbekiston uchun ushbu mintaqada joylashgan Hindiston davlati bosib o'tgan rivojlanish yo'lini o'rganish katta ahamiyatga molik edi.
3. Hindiston o'zining boy qadimiy tarixi, madaniy- ma'rifiy turmush tarzi, shuningdek zamonaviy taraqqiyot darajasi bilan O'zbekiston uchun katta qiziqish uyg'otayotgan mamlakatlardan biri edi. Shu asosda ikki mamlakat o'zaro foydali hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga kirishib, davlatlararo munosabatlarning huquqiy asoslari barpo etildi.
4. O'zbekiston va Hindiston xalqaro hamkorligi masalalarini tahlil qilish iqtisodiy soha ularning davlatlararo aloqalaridagi ustuvor yo'nalish ekanligini ko'rsatadi.
5. Davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashda madaniyat sohasidagi hamkorlik alohida o'ringa ega. Shu bois O'zbekiston va Hindiston o'rtasida ko'p qirrali madaniy aloqalar o'rnatildi. Ushbu yo'nalishdagi hamkorlikning turli-tuman shakllari o'rtasidagi o'zaro do'stlik va ishonchning yanada mustahkamlanishiga munosib hissa qo'shdi.

6. O'zbekiston bilan Hindistonning ilm-fan va ta'lim sohasidagi hamkorligi halq diplomatiyasi shakllaridan biri sifatida xalqaro munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lishi uning xorijiy mamlakatlar bilan teng huquqli munosabatlar asosida tashqi siyosat yuritish imkonini berdi. Mazkur siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish va hamkorlik munosabatlarini tartibga solishdir.

Respublikaning xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy aloqalari davlat suvereniteti va milliy xavfsizligi, iqtisodiy taraqqiyot manfaatlari yo'lida amalga oshirilsa, madaniy aloqalar esa halqlarning ushbu sohalarida erishgan yutuqlarini tanitish orqali ularni o'zaro bir-biriga yaqinlashtirish, urf-odatlar, an'analari, turmush-tarzidan xabardor qilish asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro madaniy aloqalar yuzoz yillar davomida shakllangan, hozirgi kunda esa jahonda yuz berayotgan barcha sohalaridagi integratsion jarayonlar asosida vujudga kelayotgan tabiiy jarayonlardir. Ularning yuzaga kelishi barcha halqlarning o'z madaniyatini dunyoga yoyish, targ'ib qilish, sivilizatsiyalar tizimida o'z mavqeyiga ega bo'lishga intilishlarni taqozo qilmoqda. Hozirgi kunda umuminsoniy qadryatlarning vujudga kelish jarayonining kuchayishi, dunyo miqyosida turli madaniyatlardan xabardor bo'lish ehtiyojlarini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli madaniy aloqalar nafaqat davlatning o'zaro intilishlari natijasida kuchayib bormoqda. Bu esa ularning madaniyat namunalaridan xabardor bo'lishiga va bu boradagi hamkorlik munosabatlarining rivojlanishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro maydonda madaniy aloqalar olib borar ekan, bu sohada milliy madaniy an'analarni dunyoga tanitish, shu yo'l bilan zamonaviy sivilizatsiya tizimida o'z o'rniga ega bo'lishga, jahon sivilizatsiyasiga e'tibor berib kelmoqda. O'zbekiston va Hindiston davlatlari o'rtasidagi madaniy aloqalari, avvalo, xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi ilm-fan, ta'lim, kino, teatr va amaliy san'at sohasidagi targ'ib qilish tajribasidan unumli foydalanishdan

iborat. O'zbekiston Respublikasining Hindiston bilan o'zaro ijtimoiy, madaniy hamkorligi mamlakatlarning madaniyat kunlari; davlat, madaniyat, ilm-fan, namoyondalari yubileylarining nishonlanishi; xalqaro konferensiya, simpoziumlar va festivallar o'tkazish; fan, madaniyat, san'at, maorif arboblardan iborat delagatsiyalar almashish; ilmiy va ilmiy-ommabop, davriy nashrlar almashish; teatr va kinofil'mlar xaftaliklarini o'tkazish; san'at arboblari bilan uchrashuvlar o'tkazish, hamkorlikda spektakllar va kinofilmlar yaratish, jamoaviy va shaxsiy konsert dasturlarini tashkil etish fan sohalarida tadqiqotlar olib borish; qo'shma loyihalar ishlab chiqish; grantlar joriy qilish, xalqaro hududiy, milliy va shaxsiy ko'rgazmalar tashkil qilish ikki tomon milliy madaniyatlarining o'zaro boyitishga, umuminsoniy madaniy qadryatlarning taraqqiy etishiga yordam beradi.

O'zbekiston va Hindiston xalqaro hamkorligi masalalari tadqiq etish ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganiga qaramay, o'z yechimini topmagan ayrim muammolar ham mavjudligini ko'rsatadi. Ular ma'lum ma'noda, ikki mamlakatning mavjud imkoniyatlarini to'liq ishga solishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois dissertatsiyada O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi hartomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi **taklif va tavsiyalar** ilgari surildi:

1. Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosati olib borilayotgan bir paytda ushbu sohaga mas'ul tashkilot va muassasalarning rolini oshirish talab etiladi. Buning uchun ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishda yangi loyihalar ishlab chiqish, qo'shimcha sarmoyalar kirib kelishini kuchaytirish hamda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida O'zbekiston-Hindiston qo'shma korxonalarni sonini ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuningdek, ikki mamlakat sanoat sub'ektlari o'rtasida iqtisodiyotning muayyan sohalar bo'yicha o'zaro aloqalarni kengaytirishga yordam beruvchi xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarni ko'proq tashkil etish ham ana shu maqsadga xizmat qilgan bo'lardi;

2. O'zbekiston Respublikasi va Hindiston o'rtasida hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda madaniy aloqalarni samaraliroq boshqarishda, amaldagi xuquqiy-me'yoriy hujjatlarga davlatlararo manfaatlarni inobatga olgan holda o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritib borish;
3. Mamlakatlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlab borishda o'z hissasini qo'shib kelayotgan davlat, nodavlat tashkilotlari, alohida shaxslar faoliyati bilan keng jamoatchilikni tanishtirib borish va targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqih;
4. O'zbekiston Respublikasi va Hindiston davlatlari madaniy merosi bilan yaqindan tanishtirib borish maqsadida tomonlarining oliy va o'rta maxsus ma'lum muassalarida muntazam ravishda madaniyat kunlari tashkil etish;
5. Madaniyat va sport sohalaridagi hamkorlikni yanada jadallashtirish uchun "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi va Hindiston sayyohlik firmalarini sayyohlarni jalb etishga qaratilgan ikki mamlakat hududlaridagi tarixiy va diqqatga sazovor joylar oid yangi yo'nalishlarni ishlab chiqishlari, O'zbekiston va Hindiston olimpiya qo'mitalari esa turli turnir va musobaqalarni o'tkazish bo'yicha maxsus dasturlar yaratishlari maqsadga muvofiq bo'lardi.
6. O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi milliy hamkorlikni jadallashtirish maqsadi ikki mamalakat Fanlar akademiyalarining tabiiy va ijtimoiy yo'nalishlardagi ilmiy-tadqiqot institutlari yangi loyihalar ishlab chiqarishlari, olimlar o'rtasida tajriba almashinuvi, stajirovka va ilmiy safarlar tashkil qilishni hamda dolzarb masalalar bo'yicha xalqaro ilmiy konferensiya va seminarlar o'tkazilishi kerak deb o'ylayman.
7. Ta'lim yo'nalishidagi hamkorlikni kelgusida yanada rivojlantirish uchun O'zbekiston va Hindistonning tegishli vazirliklari ikki mamlakat oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishi jarayoniga yetakchilik qilishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada respublikamizning yetakchi oliy o'quv yurtlari negizida qo'shma o'quv kurslari ochish hamda yosh, iqtidorli professor- o'quvchilar Hindistondagi

obro'li o'quv markazlarida malaka oshirishlar uchun maxsus grantlar ajratilishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

8. O'zbekiston va Hindiston mamlakatlarning kelgusida o'zaro manfaatli hamkorligini bundan keyin ham tatqiq qilish va davom ettirish zarur. Bunda ikki davlatning siyosiy munosabatlar, iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorlikda erishgan yutuqlar, ularning muntaqa va jahon miqyosidagi jarayonlarga munosabatlari kabi masalalarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг 1992 йил 13 январдаги “ Республика байналминал маданий маркази” тўғрисидаги қарори (Вазирлар Маҳкамаси қарорлар тўплами № 1 43-44 бет)
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг 1992 йил 25 мартдаги “Ўзбекистон Республикаси халқаро маданий-маърифий алоқалар миллий уюшмасини ташкил этиш” тўғрисида (Вазирлар Маҳкамаси қарорлар тўплами № 3 Б. 157.)
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 8 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар Вазирлиги ҳузуридаги Ахборот агентлигини ташкил этиш” тўғрисидаги қарори (Вазирлар Маҳкамаси қарорлар тўплами №10 Б. 9)
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 25 сентабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар Вазирлигида маданият фан ва туризм соҳасида халқаро ҳамкорлик бошқармасини ташкил этиш” тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори (Вазирлар Маҳкамаси қарорлар тўплами №9 Б. 91)
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил декабрдаги ЮНЕСКО ишлари бўйича “Ўзбекистон Республикаси миллий комиссиясини ташкил этиш” тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори. № 12 Б. 34.)

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил майдаги “Тошкент шаҳрида халқаро ислом тадқиқот марказини ташкил этиш ” тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори. № 5. Б. 23).

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari.

1. Каримов. И.А. “Юксак маънавият енгилмас куч”. Тошкент., 2008 й.
2. Каримов. И.А. “Ўзбекистон: миллий, истиқилол, иқтисод, сиёсат, мафкура”. Тошкент., 1996 й.
3. Каримов. И.А. “Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда”. Тошкент., 2001 й.
4. Каримов. И.А. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”. Тошкент., 1997 й.

III. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Аъзамова С. Обидов Б. Ҳозирги Ҳиндистон. Тошкент., Фан. 1991 й.
асослари ва устувор йўналишлари // Ўзбекистон тарихи . – Тошкент., 2000.й-№4.
2. Асадов Р. Б. Сотрудничество между Узбекистаном и Индией в области экономики и культуры исторические основы и современное состояние (1991-2001гг.). Автореф. Дис..... канд. Ист. Наук. – Тошкент., 2007 й.
3. Алимов А. Ўзбекистонда ташқи савдо. // Иқтисод ва ҳисобот. –Тошкент., 1997у .
4. Алимов А. Внешнеэкономическая деятельность Республики Узбекистан взгляд в будущее-Тошкент., 1992 й.
5. Бобооджаев З. Суверенный Узбекистан. Вопросы внутренней и внешне экономической политики.- Тошкент., 2005 й.
6. Бжезинский З. Вне контроля. Глобальный беспорядок накануне XXI век . // США. ЭПИ.- 1994 й.

7. Баранников П. А. Бхарат-Индия. Л., Наука, 1977 г
8. Винаградова Л. Экономическая интеграция в СНГ и опыт третьего мира// мировая экономика и междун. Отношения. 1995 й.-№ 9
9. Гофуров А. Хиндистон. Ижтимоий-иқтисодий, маданий, тарихий ва географик хатлари. Тошкент, ; Молия, -2010 й.
10. Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. Тошкент., Академия. 2005 й.
11. Жуков С., резникова О. Центральная Азия в мировой политике и экономика// Москва .-1994 г
12. Жаҳон қишлоқ хўжалиги.- Тошкент.; 1984 й.
13. Зиядуллаев С.К. Прогнозирований экономического развития Узбекистана в условиях перехода к рыночной экономике. Тошкент., 1993 й.
14. Захриддин Мухаммад Бобур “Бобурнома”- Тошкент.; 1989 й.
15. Индия- 2008. NEW. Delhi India. 2008у.-С.18.
16. Йўлдошев К Муфтаединов Қ. Иқтисодиёт таълимот тарихи-Тошкент. 2000 й.
17. Корнеев В. Л. Индия; 80-с годы . Москва, Мысль, 1986 г
18. Киргизбаев А.К. Научно- техническое и культурное сотрудничество
19. Узбекистана со странами азии в 80-годы. Автореф. Дис. канд. ист. наука.- Тошкент., 1991й., С. 20.
20. Касымов А. Петова Л. Внешняя политика Узбекистана в свете концепции ненасилия.-Тошкент., 1992 й.
21. Касимов А. Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан.-Тошкент., 1994 й.
22. Қирғизбоев А. К. Ўзбекистон ва Жаҳон. – Тошкент., 1997 й.
23. Қирғизбоев А. К. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент., Фан, 2004 й.
24. Қиличбек Кенжа. Ҳинд Сориға. Тошкент. “Шарқ”. 2000 й.
25. Митрохин. Л.В. Индия; вступая в век XXI . Политиздат, Москва. 1987 г. материаллар тўплами. Фарғона. 2009 й.

26. Нуриддинов Э. З. Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолияти. Тошкент. 2009 й.
27. Нуриддинов Э. З. Становление и приоритетные направления внешней. Тошкент. 2002 й.
28. Нуриддинов Э. З. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. Тошкент., 2002 й.
29. Пугаченкова Г. А. Ремпель Л. И. Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана. Тошкент., 1960.
30. Политика Индии в Центральной Азии. Аспекты Узбекского-индийского сотрудничества. Тошкент.; 2007 й. -16 С.
31. Полетики Республики Узбекистан // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент., 2002 й.
32. Рахмонкулов М. Х. , Убайдуллаев З. С. Фармиравание системы правового регулирования внешнеэкономической деятельности Узбекистана. // Общественные науки в Узбекистане. Тошкент. , 1994 й.
33. Расулов А., Бедринцев А., Акилов А. Узбекистан внешнеэкономическая деятельность и интеграции в мировой- хозяйство- Тошкент., 1996 й.
34. Расулов А. Экспортная стратегия национальной экономики. – Тошкент., Фан . 1996 й.
35. Сен А- Жаҳон мамлакатларида камбағаллик сабаблари ва ижтимоий ҳимоя (Ҳиндистон мисолида)- Москва.; 1996 й.
36. Салихов С.С. Выход из внешней рынок . // Экономика и статистика. Тошкент., 1995 й.
37. Турсунмухаммедов И. Г. Совместные предприятия и проблемы их развития. // Общественные науки в Узбекистане. Тошкент., 1993 й.
38. Ўзбекистон янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тошкент. 2000 й.
39. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент.; 11. 2005. 334-355 бет.
40. Ўзбек совет энциклопедияси .- Тошкент.; 1980. 426-438. бет

41. Усмонов С. Практическое осуществление собственной модели перехода к рыночным отношениям в Узбекистане // Экономика и статистика.- Тошкент., 1997 й.
42. Фаргона водийси тарихи янги тадқиқотларда. Республика илмий анжумани материаллар тўплами. Фаргона. 2009 й.
43. Ҳайитов Ш. А. Ўзбек мухожирлиги тарихи (1917-1991 йиллар). Тошкент., 2008 й.
44. Шодмонов О. Н. Қадимги ҳинд маданиятига отд сўзлар луғати.- Тошкент.; 2005 й.
45. Шарма. Л. П. Бобурийлар салтанати.- Тошкент.; 1998 й.
46. Шанхай Ҳамкорлик Тошкilotи (ШХТ)-2001 йил июнь ойида Россия, Хитой, Қозоғистон, Ўзбекистон, Қирғизистон, Тожикистон иштирокида ташкил этилган. 2001 й.
47. Усмонов. Қ. Ўзбекистон тарихи. Тошкент., “илм-зиё”- 2010 й.
48. Samuel P. Huntington. The Clash of Civilization ?// Foreign Affairs-Summer. – 1994 y
49. Лафасов М. Жаҳон тарихи. Тошкент., “Турон-Иқбол”. 2011 й

IV. Avtoreferet.

1. Асадова Р. Б. Сотрудничество между Узбекистаном и Индией в области экономики и культуры: исторические основы и современное состояние (1991-2001 гг): Автореф. дис.. канд. ист. Наука. – Тошкент.; 2007.,-29 с
2. Зиямов. Н. Роль Узбекистана в развитии межгосударственного экономического и культурного сотрудничества стран Центральной Азии (1991-2001 : Автореф. дис.... канд. ист. наук- Тошкент.; 2002 г.
3. Усаров Фахриддин Умаралиевич. Ўзбекистон Республикаси ва Жанубий-Шарқий Осиё мамлакатлари ўртасида иқтисодий ва маданий соҳалардаги ҳамкорлик. Автореферат ном дисс-Тошкент.; 2010 й.

V. Davriy matbuot va nashrlar.

1. Халқ сўзи газетаси. 1994 йил 22 июн сони.
2. Халқ сўзи газетаси. 2000 йил 29 апрел сони.
3. Халқ сўзи газетаси. 2001 йил 26 январ сони.
4. Халқ сўзи газетаси. 2001 йил 3 феврал сони.
5. Халқ сўзи газетаси. 2004 йил 24 январ сони.
6. Халқ сўзи газетаси. 2005 йил 8 апрел сони.
7. Халқ сўзи газетаси. 2010 йил 20 май сони.
8. Гулистон журнали. 1994 йил №1 В 58.
9. Ўзбекистонда ижтимоий фан. 1997 йил №12 сони.
10. Ўзбекистонда ижтимоий фан. 2005 йил №1-2 Б 60-65 бет.
11. Фидокор газетаси. 2005 йил 16 июн сони.
12. Жамият ва бошқарув. 2005 йил №2 Б 60-65.

VI. Internet manbalari.

1. “ziyonet. uz.” Потал. “Ўзбекистон ва Ҳиндистон бугунги кунда”
2. www.kier.go.kr. “Азалий дўстлик ҳақида”
3. Stat.uz. “Давлатлараро иқтисодий алоқалар”
4. Gov.uz. “Кеча ва бугун”
5. Интернет маълумотларининг [www.Газетабиржа. Uz](http://www.Газетабиржа.Uz). Сайтида тўлиқ танишиш мумкин.



1-

rasm. Hindistonning Agrashahrida joylashgan Buburiylarsulolasining yorqin vakili S
hoh Jahontamonidano'zyori Mumtoz Mahal
(Arjumand Bonu) ga atab qurdirgan **Toj Mahalning** ko'rinishi.



2-rasm.2011-yil 27-
martkuni Toshkent shahrida o'tkazilgan xalqaro shaxmat musobaqasi Shahmat bo'yich
ajahon chempionlari O'zbekistonlik Rustam Qosimjonov va Hindistonlik Vishvanatan
Anand.



3-rasm.O'zbekiston va Hindiston davlatlari azali do'st davlatlar
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Hindiston Respublikasi Bosh
vaziri Manmoxan Singx bilan ushrashuvi 2005-yil aprel.




4-rasm. Poytaxtimizda “Kichik biznes” tadbirkorlikda Hindiston davlatining ro’li va ahamiyati. Yangi paxta navini yaratish ustida anjumandan olingan rasm.



5-rasm. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Hindiston safarida 1993-yil Hindistonning yetuk davlat arbobi Moxandas Karamchand GANDI (1869-1948) buysti prezidentimiz tamonidan qabul qilinmoqda.

6-rasm.O'zbekiston va Hindiston davlatlari azali do'st davlatlar




O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Manmoxan Singx bilan ushrashuvi 2005-yil aprel.

7-rasm Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Manmoxan Singx O'zbekiston



tashrifida 1993-yil 23-25- may kunlari



8-rasm.2001 yil 21 noyabrda Hindistonning Yangi Dehli Universitetida
“Markaziy Osiyo respublikalar mustaqilligining 10 yilligi” mavzusiga
bagʻishlangan Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtrokchilari (chapdan oʻnga)
professor A. Gʻofurov, Hindiston Taʼlim, Madaniyat va sport vaziri, Hindiston
respublikasining Bosh vaziri, professor Devabdra Kushik, professor Varikoo,
Yangi Dehli Universiteti rektori xalqaro konferensiyaning hayʼatida



9-rasm.Dehli shahri. Yangi Dehli Universitetida “Markaziy Osiyo respublikalari mustaqilligining 10 yiligi’ga bag’oshlangan Xalqaro konferensiyada professor A. G’ofurov Hindiston Bosh ministri Bixari Yajpasga, Bosh munistr maslaxatchisi prof. Devandra Kaushikga, Dehli Universiteti rektoriga va va prof. K. Varikooga do’ppilar sovg’a qilish jarayoni.



10-rasm.2008 yil noyabrda Farg'ona Davlat universitetiga Hindistonning Yangi Dehli Universitetidan doktor Nosir Razaxon boshchiligida tajriba almashish uchun kelgan magistrant qizlar va professor A. G'ofurov universitet talabalari bilan.



12-rasm.2005 yil 14 may Farg'ona Davlat Universiteti O'zbekistondagi Hindiston elchisi Tayal Sayol bilan uchrashuv.

